

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON
MILLIY UNIVERSITETI
TARIX FAKULTETI
ARXEOLOGIYA KAFEDRASI**

MAVZU: MUSTAQILLILK YILLARIDA O‘ZBEKISTON MADANIY
MEROSIGA YANGICHA YONDASHUV (ARXEOLOGIK YODGORLIKLAR
MISOLIDA)

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: katta o‘qituvchi (PhD) Muxamedov Y.K.

Bajardi: To‘layeva (Muhiddinova) U. I.

Toshkent - 2024

MUNDARIJA

Kirish.....	3-5
--------------------	------------

I bob. ARXELOGIYA KONSEPSIYASI VA MUSTAQILLIK YILLARIDA ARXELOGIYAGA BO'LGAN E'TIBORNING QONUN HUJJATLARIDA AKS ETISHI.....	5-15
--	-------------

1.1 O'zbekistonda arxeologiya fanini rivojlantirish Konsepsiyasi.....	5-15
---	------

1.2 Mustaqillik yillarida arxeologiyaga bo'lgan e'tiborning qonun hujjatlarida aks etishi.....	15-46
--	-------

II bob. ARXELOGIYADA XALQARO HAMKORLIKNING RIVOJLANIB BORISHI VA MUSTAQILLIK DAVRIDA ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR.....	46-54
---	--------------

2.1 O'zbekistonda xalqaro ekspeditsiyalarning asosiy yo'nalishlari.....	46-54
---	-------

2.2. Mustaqillik davrida arxeologik tadqiqotlar.....	54-64
--	-------

XULOSA.....	65-66
--------------------	--------------

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	67-71
--	--------------

KIRISH

Bitiruv malakaviy ish mavzusining asoslanishi va dolzarbligi:

Arxeologiya merosi obyektlari madaniy merosning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. O'zida necha ming yillik va asrlik boy tarixni aks ettiruvchi, moziyning yashirin sirlarini insoniyatga yetkazuvchi asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Necha asrlardan buyon yashab kelayotgan, bizgacha yetib kelgan moddiy madaniyatning asosi hisoblanadi.

Ma'lumki, O'zbekiston dunyoning eng qadimgi mintaqalaridan biri bo'lib, uning hududida bir necha ming yillar mobaynida sivilizatsiyaviy taraqqiyot jarayoni davom etib kelgan. Aynan shu hududda eng qadimgi davlatlardan hisoblanuvchi Baqtriya, Sug'd, Xorazm, Farg'ona kabilar shakllangan. Bir necha asrlar mobaynida asosiy savdo yo'li sifatida faoliyat yuritgan Buyuk Ipak yo'li ham shu zamindan o'tgan. Bularning barchasi tasodif emas, albatta.

Qadimdan O'zbekiston hududida turli sohalar taraqqiy etgan. Hunarmandchilikning turli yo'nalishlari deymizmi, ilm-fan deymizmi, yurtimiz tuprog'ida tug'ilgan va kamol topgan mashhur va mohir shaxslarning salmog'i anchagina. Ayniqsa, shaharsozlik madaniyati o'zining yuksak taraqqiyoti bilan alohida ajralib turadi. Istilolar va bosqinlar natijasida vayron bo'lgan hamda tuproq ostida qolgan tarixning bu sahifalarini ochishda arxeologiyaning o'rni katta ahamiyatga egadir. Har bir arxeologiya merosi obyektining o'rganilishi, arxeologiya ashyolari va ularning boshqa obyektlar bilan o'zaro bog'liqligi hamda o'ziga xos tomonlarini yoritish bugungi kun uchun dolzarb mavzulardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Mavzuning obyekti va predmeti:. Mamlakatimiz hududida arxeologiya sohasining rivojlanishi va mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlarga oid ma'lumotlar asosida yoritib berish mavzuning obyekti va predmetini tashkil qiladi.

Mavzuning maqsadi va vazifalari: Malakaviy ishning mavzu dolzarbligida qayd qilingan muammolardan kelib chiqib, quyidagi maqsad va vazifalar nazarda tutiladi :

- mustaqillik yillarida arxeologiya sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni yoritib berish;

- arxeologiya Konsepsiyasi va ushbu sohaga qaratilgan e'tiborning qonun hujjatlarida aks etishini tahlil qilish;

- arxeologiya sohasida xalqaro hamkorlikning yangi yo'nalishlarini o'rganish va tahlil qilish;

- mustaqillik davridagi arxeologik tadqiqotlar va ularning natijalarini tahlil qilish;

- mamlakatimizda arxeologiya sohasini rivojlantirish bo'yicha yaratilayotgan imkoniyat va sharoitlarni tahlil qilish.

Ilmiy yangiligi: Mustaqillik yillarida O'zbekistonda tashkil qilingan ekspiditsiyalar va arxeologik qo'shma ekspiditsiyalar xaqida ma'lumotlarni to'plash. So'nggi yillarda arxeologiya va madaniya merosni saqlash va asrab avaylashga doir qabul qilingan qaror va farmonlarni asosida mazkur masalani mazmun mohiyatini ochib berilagan.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili. O'zbekiston hududini arxeologik jihatdan o'rganish hamda bu sohada yuqori yutuqlarga erishish Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrlarga to'g'ri keladi. A.Asqarov, L.I. Albaum, V.M.Masson, G.A.Pugachenkova, S.K.Kabanov, N.I.Krashennnikova, M.Xasanov, A.V.Omelchenko; M.X. Isomiddinov, B.X. Matboboyev, E.Rtveladze, A.S. Sagdullayev, Sh.B.Shaydullayev, A.Sh. Shaydullayev, T. Annayev, A. Anarbayev, B. Turg'unov , Sh. Pidayev, M.R. Qosimov, R.X. Sulaymonov , O'.I. Islomov, D.N. Lev, N. Toshkenboyev, M.Jo'raqulov kabilarning arxeologiya arxeologik tadqiqotlarni amalga oshirdilar hamda yuqori natijalarni qo'lga kiritdilar. Aynan mana shunday o'z kasbining fidokorlari mamlakatimiz hududi sivilizatsiya markazlaridan biri ekanligi borasidagi ilmiy qarashlari xorijiy davlat olimlari tomonidan yuksak baxolanib kelmoqda.

Tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning tavsifi Bitiruv malakaviy ishini yozishda tarixda umum etirof etilgan mavjud yondashuvlar va masalaga kompleks tarzda yondashish, qadimgi tarixni tizimli ravishda tarixiylik asosida tadqiq etish va umumlashtirish asosida yoritilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishi mavzusini yoritishda quyidagi masalalar tahlil qilinishi rejalashtirilgan :

- mustaqillik yillarida madaniy meros obyektlariga , jumladan , arxeologiya merosi obyektlariga bo'lgan munosabatning o'zgarib borish jarayoni ;

- mustaqillik yillarida arxeologiya merosi obyektlariga bo'lgan e'tiborning mamlakatimiz qonun hujjatlarida aks etishi ;

- arxeologiya Konsepsiyasi va uning sohani rivojlantirishdagi ahamiyati

- arxeologiya sohasida xalqaro hamkorlikning rivojlanishi hamda asosiy yo'nalishlari

- mustaqillik davrida amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar va ularning natijalari

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ish mavzusi qamrab olgan tarixiy va arxeologik ma'lumotlar O'zbekiston tarixi, O'zbekistonda mustaqillik yillarida arxeologiya sohasining rivojlanish tarixini o'rganishda qo'llaniladi. Tarix va yosh arxeologlar to'garaklarida yoki turli arxeologiya sohasiga oid seminarlarda mavzu tarixiy ma'lumotlaridan foydalanish mumkin.

Mavzuning tuzilishi. Malakaviy ish mazmuni Kirish, ikki bob, to'rtta paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Mazkur bitiruv malakavi ishi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti tarix fakulteti qoshidagi AL-662205481 sonli "Qashqadaryo vohasi tarixiy va madaniy yodgorliklari, ekoturizmiga oid ziyoratgohlarning "i-turizm" platformasini ishlab chiqish" mavzusidagi 2024-yil 3-yanvardan 31-dekabrgacha mo'ljallangan amaliy loyiha doirasida bajarildi.

I bob. Arxeologiya Konsepsiyasi va mustaqillik yillarida arxeologiyaga bo'lgan e'tiborning qonun hujjatlarida aks etishi.

I.1. O'zbekistonda arxeologiya fanini rivojlantirish Konsepsiyasi

O'zbekiston - jahon sivilizatsiyasining eng qadimgi o'choqlaridan biri, uning salmoqli, ajralmas qismidir. O'zbeklar Respublikaning eng qadimiy tubjoy xalqi, ushbu yuksak sivilizatsiyaning merosxo'rlaridirlar. Markaziy Osiyo tuprog'ida mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi, respublikamizda tarixiy ildizlarimizga, davlatchiligimizning ilk manbalariga, iqtisodimiz va madaniyatimizning o'tmishiga, boshqa xalqlar bilan tarixiy aloqalarimizga, ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissalarini bilishga bo'lgan qiziqishni kuchaytirib yubordi.

Xalqimizning kelib chiqishini haqqoniy tarixiy manzarasini yaratish bugungi kunning dolzarb vazifalardan biri hisoblanib, bu mustaqil respublikamizda milliy tiklanish, milliy hamjihatlikni kuchayishiga olib keladi. Tarixda xalqning taqdiri aks etgan bo'lib uni anglash, his etish, xalqning tafakkurida tarixiy ongni shakllantirishga, milliy o'z-o'zini anglashga, vatanparvarlik va xalqparvarlikni oshishiga olib keladikim - bularsiz buyuk davlat qurishni iloji yo'qdir. Afsuski, o'zbek xalqining qadimgi davrlardan tortib to bugungi kungacha bo'lgan tarixi bir tekisda o'rganilgan yo'q va o'rganilgan qismi ham haqqoniy tarixiy haqiqatni anglata olmaydi. Insoniyatni tafakkurini shakllantiradigan, fanlar tarmog'i ichida, arxeologiya XIX asrda olamshumul to'ntarish yasadi. Asrimiz boshida mashhur ingliz arxeologi G.Chayld: «teleskop astronomiyada qanchalik ko'rish imkoniyatini oshirgan bo'lsa, bu fan ham (arxeologiya), o'tmishining cheksiz ufqlarini ko'rishni shu darajada kengaytirdi. Mikroskop biologiya fanida, katta organizmlarning tashqi qobiqlarini juda kichik hujayralar tashkil etishini kashf etganidek, bu fan ham tarixshunoslikda o'tmishni o'rganish imkonlarini yuzlab karra oshirdi. Qisqasi, radioaktivlik ximiyada qanchalik miqyosda o'zgarishlar qilgan bo'lsa, bu fan ham tarixshunoslikda shu darajada o'zgarishlar yasadi.», - deb yozgan edi.

Arxeologiya tufayli insoniyat tarixi 2-2,5 million yilga qadimiylashdi. Qadimgi Misr, Ikkidaryo oralig'i, Hind, Xitoy, Mayya, antik Gresiya va Rim sivilizatsiyalari kashf qilindi.

O'zbekistonda yuz yildan buyon olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida, nafaqat yuksak va o'ziga xos, o'z yoshi jihatidan jahon sivilizatsiyasi o'choqlaridan qolishmaydigan Baqtriya, Xorazm, So'g'd sivilizatsiyalari ochildi, balki bu qadim yurt insoniyat tomonidan 1 million yillar ilgari o'zlashtirilganligi ham kashf qilindi desak mubolag'a bo'lmaydi

O'zbekiston zamini o'z bag'rida, o'tmishning barcha bosqichlariga oid qimmatli yodgorliklarni asrab kelayotgan bebaho arxivdir. Uning hududlarida insoniyat sivilizatsiyasining bebaho durdonalari bo'lgan 8 mingdan ortiq arxeologik yodgorliklar saqlanganligi e'tirof etiladi.

Ajdodlarimiz tomonidan bunyod etilgan hamda bugungi kungacha saqlanib qolgan har bir yodgorlik, manzilgoh yoki qoyatosh suratlari muhim tarixiy guvoh, ya'ni hujjat bo'lib, ularning barchasi o'zlarining sirli olamini kashfiyotchisining kutmoqda. Shuning uchun ham, kun tartibida turgan birinchi muhim masala yuqorida tilga olingan yodgorliklarni har tomonlama avaylab asrashdir.

O'zbekiston - ochiq osmon ostidagi ulkan muzeyga qiyos. Uning bebaho tarixiy eksponatlari Samarqand va Buxoro, Xiva va Shahrisabz, Termiz va Qo'qonda joylashgan nodir me'morchilik ansambllari bilan birgalikda, qadimgi Xorazm, Qoraqalpog'iston, Surxondaryo, Zarafshon va Farg'ona vodiysida, Sharq bilan Farbni bog'lab turgan qit'alararo savdo-karvon yo'li o'tgan bepoyon kengliklarida saqlanib qolgandir. Bularning burchasi O'zbekiston xalqlarining moddiy madaniyati hamda etnik qiyofasida muhrlanib qolgan.

Ammo sobiq Sovet imperiyas imustamlakasi davrida boshqa tarixiy fanlar kabi o'zbek arxeologiyasi ham totalitar davlat mafkurasining iskanjasida edi. Marksistik konsepsiya asosida shakllangan bu mafkura, jamiyat taraqqiyotini asosiy harakatlantiruvchi kuchi sinflarning o'zaro qarama-qarshiligidadir, deya o'rgatar edi Mustaqil O'zbekistonda boshqa tarixiy fanlar qatori arxeologiya ham jamiyat taraqqiyotini haqqoniy, har tomonlama keng urganish imkoniyatiga ega

bo'ldi. Bugungi kunda «fan», «davlat», «tarix», «sivilizatsiya», «meros» kabi tushunchalar yangicha ohangda jaranglamoqda bu tushanchalar yangicha ma'no kasb etdi va yagona, o'zaro hamohang tushunchaga aylandi.

Uzoq davom etgan tarixiy jarayonlarda xalqning taqdiri muhrlangan bo'lib, tarixchi va arxeologlarning vazifalari millatning haqqoniy tarixini, mavjud dalillar asosida yaratib, totalitar Sovet tuzumi davrida yo'l qo'yilgan adolatsizliklar, soxtalashtirishlarga chek qo'yishdir.

O'zbek xalqining tarixi, eng qadimgi davrlardan, ya'ni paleolit davridan boshlab to bugungi kungacha, janubda O'rta Sharq va shimolda Yevroosiyo cho'llari bilan yaqin aloqada rivojlanib, umumjahon tarixining bir qismi hisoblanadi. O'zbek arxeologlari o'tmishga subyektiv yondashishga yo'l qo'ymaslik, tor qobiqda o'ralashib qolmaslik uchun AQSh, Yaponiya, Fransiya, Germaniya, Italiya, Polsha va dunyoning boshqa yirik ilmiy markazlari bilan chuqur, har tomonlama hamkorlik qilmoqda. Bu hol o'zbek arxeologiyasini jahonga tanilishiga, uning xalqaro obro-u'e'tiborini oshishiga va xalqimiz tarixini dunyoga yoyilishiga olib kelmoqda. Misol uchun bugungi kunda o'zbek arxeologlari xorijiy hamkorlari bilan birgalikda, ilk o'zbek davlatchiligi tarixi va uning taraqqiyoti bosqichlari, etnos tarixining ilk davrlari, ulug' sivilizatsiyani yaratishda uning ahamiyatini oydinlashtirish, Buyuk Ipak yo'li tarixi, dunyoviy dinlarning tarqalish yo'llarini o'rganish kabi muhim muammolarni hal qilmoqdalar.

O'zbekistonda tarixiy ongni rivojlantirish, Mustaqil O'zbekistonning yosh ozod fuqarosini tarbiyalash borasida o'zbek arxeologiyasi amalga oshirishi lozim bo'lgan asosiy fundamental va amaliy tadqiqotlarni quyidagi bloklarga ajratish lozimdir.

A. Arxeologiyaning nazariy-metodologik asoslarini yaratish - o'tmishga materialistik yondashish, jamiyatning evolyusion va bir tekisda rivojlanishi, tarixni qat'iy formatsiyalarga bo'lib o'rganishdan voz kechish va mamlakat tarixi va millat tarixini davrlarga va xronologiyaga bo'lish muammolariga sivilizatsion yo'l bilan yondashish va boshqalar. Dunyo arxeologiyasining tajribalari asosida tadqiqot usullarini takomillashtirish va statistik, morfologik, funksional,

taksometrik o'lchovlar bo'lgan «arxeologiya manbai», «madaniyat», «madaniy qatlam», «yodgorlik», «manzilgoh», «sivilizatsiya», «qishloq», «ilk shahar», «ilk davlat» kabi tushunchalarni jahon arxeologiyasi andozalariga yaqinlashtirish.

B. Tosh davri, bronza, ilk temir davri, antik va o'rta asrlarga oid arxeologik madaniyatlarni, Markaziy Osiyoni ibtidoiy odamlar tomonidan o'zlashtirilishini o'rganish. Ashel, muste, yuqori paleolit, mezolit, neolit yodgorliklarni, qoyatosh suratlarini, paleoekologiyani, neolitik inqilobni ishlab chiqarish xo'jaligini, sug'orma dehqonchilik madaniyatini o'rganish. Sivilizatsiyalarni tug'ilishi, mitti vohaviy davlatlarni paydo bo'lishi, ilk shaharlar va davlatlarni yuzaga kelish muammolarini o'rganish, «Katta Xorazm», Baqtriya, So'g'd, ellinizm, urbanizatsiya, me'morchilik, shaharsozlikni taraqqiyoti, Buyuk Ipak yo'lini shakllanishini, savdo-sotiq, pul muomalasi, hunarmandchilik muammolarini o'rganish. O'troq dehqonlar va ko'chmanchi-chorvadorlar o'rtasidagi o'zaro muloqotlar, qadimgi jamiyatlarning mafkurasi, dunyoqarashini, dunyoviy dinlarning paydo bo'lishi va tarqalishi kabi muhim muammolarni urganishi Samarqand, Buxoro, Xeva, Shahrisabz, Qarshi, Termiz, Marg'ilon, Andijon va Toshkent kabi yirik tarixiy shaharlarning paydo bo'lishi, taraqqiyoti bosqichlari va jahon sivilizatsiyasi xazinasiga qo'shgan hissalarini aniqlash.

V. Etnos, jamiyat va odamzotning kelib chiqishi, urug'larning shakllanishi, Janubdagi o'troq dehqonchilik madaniyati bilan Shimoldagi ko'chmanchi dasht madaniyati o'rtasidagi o'zaro aloqalar, o'zbeklarning kelib chiqishida Oltoy-Turon va Hindu Yevropa xalqlarining o'zaro hissasini (sintez) aniqlash.

G. Arxeologik yodgorliklarni qidirib topish, pasportlashtirish, kartalashtirish, ta'mirlash, saqlash va qo'riqlash, paleobotanika, paleoekologiya, paleoekonomika, paleozoologiya, paleobotanika, qadimgi irrigatsiya kabi fanlarning yutuqlaridan foydalanib va qadimgi dehqonchilik madaniyati tarixidan keng foydalanib arxeologik yodgorliklar majmuasini va O'zbekiston arxeologiyasining umumlashgan mukammal manzarasini yaratish.

O'zbekiston arxeologiyasi so'nggi chorak asr mobaynida ulkan ashyoviy dalillar zaxirasini to'plashga erishdiki, bular o'zbek xalqining kelib chiqishi tarixini bor bo'yi - basti, yangi qirralari bilan yangidan yoritish imkonini beradi.

Vazirlar Mahkamasining 1998 -yil 22- iyuldagi qarorida tarixchilar oldiga qo'yilgan muhim vazifalardan kelib chiqib va mustaqil, ozod davlatimiz konsepsiyasi asosida o'zbek arxeologiyasi quyidagi dolzarb va muhim ilmiy yo'nalishlarni belgilaydi.

O'zbek davlatchiligi va sivilizatsiyasining paydo bo'lishi, shakllanishi hamda rivojlanish bosqichlari. (Qadimgi davrlardan temuriylar davrigacha)

O'zbek sivilizatsiyasi va davlatchiligi o'z taraqqiyoti davomida qo'yidagi bosqichlarni boshirdan kechirgan:

- **Birinchi bosqich.** Bu bosqichda, eramizdan oldingi II-I ming yilliklardagi, ilk temir va bronza davrlarida Amudaryo, Zarafshon, Qashqadaryo xavzalarida hamda Sheroboddaryo va Oqdaryoning kichik vohachalarida o'troq dehqonchilik madaniyati, ilk shaharlar, dastlabki madaniy vohalar va qadimgi Misr shaharlari, Mesopotamiya va Mayyadagi shahar davlatlarga o'xshash davlatlar paydo bo'ladi.

- **Ikkinchi bosqich.** Eramizdan oldingi VIII-VII asrlarda qadimgi Sharqning Midiya davlatiga o'xshash «Katta Xorazm», «Baqtriya podsholigi» va «Gava So'g'di» kabi yirik, shakllangan siyosiy davlatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan xarakterlanadi.

Tarixiy va arxeologik manbalar buni tasdiqlaydi. Zamonaviy O'zbekiston territoriyasida bu davrga oid madaniy o'choqlarni arxeologlarimiz Farg'ona vodiysidan (Chust madaniyati), So'g'diyonadan (Ko'ktepa, Sangirtepa. Uzunqir va boshqalar), Baqtriyadan (Djarquton, Mollalitepa, Kuchuktepa va boshqalar). Chochdan (Burganlik madaniyati), Horazmdan (Gyaurqal'a, Quyusoy) topib o'rganganlar.

Yuqoridagi tilga olingan ilk shahar madaniyati o'choqlarini Ovestoda keltirilgan jamiyatlar bilan taqqoslash mumkin.

- **Uchinchi bosqich.** Bu bosqichda o'zbek davlatchiligi o'z siyosiy va iqtisodiy mustaqqilligini yo'qotib uning hududlari eramizdan oldingi VI asrda

ahomoniylar, soʻngra eramizdan oldingi IV asrlarda Aleksandr Makedonskiy davlati kabi yirik, imperiyalarning maʼmuriy boʻlaklaridan biriga aylanadi.

- **Toʻrtinchi bosqich:** oʻzbek davlatchiligi Selevkiylar imperiyasining qaramligidan ozod boʻlib, eramizdan oldingi III-II asrlarda Yunon-Baqtriya podsholigi paydo boʻlganligi bilan xarakterlanadi.

Bu davrda tarix sahnasida Xorazm, Davon, Qushon imperiyalari hamda Kangyuy konferensiyalari paydo boʻladi. Voha urbanistik va koʻchmanchilik shakllarini oʻzida jamlagan, Markaziy Osiyo tipidagi davlatlar paydo boʻladi. Voha - urbanistik tipidagi davlatlarda doimiy sugʻorish tarmoqlari asosida irrigatsiya va dehqonchilik taraqqiy etgan boʻlsa, koʻchmanchilik shaklidagi davlatlarda esa koʻproq davlatchilikda harbiy-maʼmuriyatchilik elementlari kuchayganligini kuzatamiz.

Yirik imperiyalar tarqalib ketganidan soʻng ham davlatchilikning ikkinchi tipi keyingi asrlarda ancha uzoq yashaganligini koʻramiz. Yunon-Baqtriya, Qushon, Kangyuy davlatlarini inqirozidan soʻng, eftalitlar, sosoniylar, Turk hoqonligi va Arab xalifaligiga qaram boʻlgan bir qancha mayda vassal hukmdorliklar paydo boʻladi.

- **Beshinchi bosqich** eramizning III-VII asrlarida xioniylar, kidaritlar, eftalitlar va turk hoqonlari sulolalarining paydo boʻlishi oʻzbek davlatchiligining rivojlanishi bilan xarakterlanadi.

Aynan bu davrda yirik antik davlatlar himoyasida qitʼalararo oʻtuvchi savdo-karvon yoʻli Buyuk Ipak yoʻli shakllanadi. Bu yoʻlning taʼsirida ichki va tashqi savdo koʻchayadi, tranzit va mahalliy savdo yoʻllari paydo boʻladi, shaharlarning tarkibiy qismida oʻzgarishlar sodir boʻladi. Soʻgʻd homiyligida Xorazm, Ustrushona, Choch, Fargʻona va Tohariston Hukumdorliklari Ittifoqi paydo boʻladi. Eftalitlar va turk hoqonligi davlatlarida dehqonchilik, chorvachilik sivilizatsiyasining sharqona qimmatlari paydo boʻladi. Yagona madaniyat shakllanadi. Oʻzbekiston xalqlarining Markaziy Osiyo sivilizatsiyasiga qoʻshgan salmoqli ulushi yaqqol koʻzga tashlanadi. Ipak yoʻli orqali tovarlar, gʻoyalar, ilmfan, sanʼat va madaniyatning harakatlanuvi tufayli davlat sivilizatsiyasi jahon sivilizatsiyasi tomon oʻsib boradi.

- **Oltinchi bosqich.** VII-VIII asrlarda O'zbekiston hududlari arab xalifaligi tarkibiga kirishi va mustaqillikni yo'qotishi bilan xarakterlanadi. Arablarga qarshi kurashda turklar bosh ahamiyat kasb etadilar. Bu bosqichda turklar barcha jihatlarida o'z qobiliyatlarini namoyish etadilar. Tarixiy manbalar, VIII-IX asrlarda turklarning katta harbiy qobiliyatlari, davlat boshqarishdagi mahoratlarini isbotlaydi. Somoniylar davlat boshqaruv apparatida va harbiy institutlarida turklarning roli ko'chayganligi ko'rinadi.

- **Yettinchi bosqich.** X-XIII asrlarda Somoniylar, Qoraxoniylar va Xorazmshohlarning mustaqil davlatlarining paydo bo'lishi, hukmronlik qilishi bilan xarakterlanadi. Qoraxoniylar, Anushteginlar - xorazmshohlar davlatlari o'zbek davlatchiligining yangi bosqichlari.

Sivilizatsiyaning asosiy ko'rinishi hisoblangan shaharlar bu davrda gurkirab rivojlanadi. Poytaxt shaharlar, Buxoro, Samarqand va Urganch moddiy va ma'naviy madaniyatning markazlariga aylanadi. Bu davrda Samarqand, Shosh, Buxoroning kumush tangalarini Sharqiy va Shimoliy Yevropaga kirib kelishi kuchayadi ya'ni ular qit'alararo savdo-karvon yo'lida asosiy xorijiy tovarga aylanadi.

Bu davrda o'zbek xalqining madaniyati har tomonlama rivojlanib bu Samarqand, Shosh, Farg'ona, Ustrushona, Chag'oniyon kulollari, misgarlari, zargarlari, kandakorlarining yuksak sifatli mahsulotlarida o'z aksini topadi.

- **Sakkizinchi bosqich.** Movorounnahrda mo'g'ullar bosqini va uning o'z mustaqilligini yo'qotib, XIII-XIV asrlarda Chig'atoy davlati tarkibiga kirganligi bilan xarakterlanadi.

XIII asrning boshida Markaziy Osiyo Chingizxon tomonidan istilo qilinadi. Mo'g'ullarga qarshi yirik turk davlat arboblari va lashkarboshilari erk jangiga ko'tariladilar. Muhammad Inolchiq (O'tror), Temur Malik (Xo'jand), Jaloliddin Manguberdilar mo'g'ullarga qaqshatg'ich zarbalar beradilar.

Bu davrda yirik shaharlar inqirozga uchraydi, aholining katta qismi qirib tashlanadi va omon qolganlari qullikka mahkum etiladi, buning natijasida Markaziy Osiyoning iqtisodi, madaniyati va taraqqiyoti bir necha asr orqaga suriladi.

- **To‘qqizinchi bosqich.** Bu bosqichda Markaziy Osiyoning o‘rta asr sivilizatsiyasi va davlatchiligining eng yuksak cho‘qqisi sifatida - Amir Temur va temuriylarning markazlashgan mustaqil davlati yuzaga keladi, o‘zbek davlatchiligi eng yuksak taraqqiyotga ko‘tariladi.

Sohibqiron Amir Temurning mo‘g‘ullar istibdodiga qarshi olib borgan ozodlik kurashlari va buning natijasida mo‘g‘ul bosqichlaridan xalos bo‘lish tufayli Markaziy Osiyoda mustaqil davlat yuzaga keldi. Amir Temur davlati Xitoy, Hindiston va Arab mamlakatlari bilan urnatgan madaniy, iqtisodiy va ilmiy aloqalar tufayli Movorounnahrda me‘morchilik, san‘at-madaniyat, hunarmandchilik rivojlandi.

Temuriylar Renessansi davrida Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ulug‘ shoir, yozuvchilarning xizmatlari tufayli o‘zbek adabiy tili rivojlandi, yangi pog‘onalarga ko‘tarildi.

Samarqand dunyoviy imperiyaning shohona poytaxtiga aylandi. Shoh, olim Mirzo Ulug‘bek davrida, ayniqsa Movarounnahr ilm-fani, moddiy va ma‘naviy madaniyati yangi qirralar bilan boyidi. Markaziy Osiyoning yirik shaharlari Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Termiz, Xeva XIV-XV asrlarda qadimgi Sharqning eng go‘zal, obod, yuksak madaniyatli shaharlari sirasiga kiradi.

Bu davrda moddiy madaniyatda ham katta uzgarishlar yuz berdi. Masalan, kulolchilikda temuriylar davrigagina xos stil-rang barang gullar bilan bezatilgan idish tovoqlar yasalishi keng yo‘lga qo‘yiladi.

Arxeologik va tarixiy manbalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek xalqining eng qadimgi davrlardan tortib to hozirgi kunlargacha bosib o‘tgan tarixiy yo‘li, umuminsoniy qadriyatlar va davlatchilikni bunyod qilish borasidagi bunyodkorlik ishlarida qadimgi Sharqning madaniyatli xalqlari bilan yaqin hamkorlikda, qo‘shnichilikda, muloqotda bo‘lganlar. Buning natijasida ajdodlarimiz sivilizatsiya va davlatchilik borasida erishgan ko‘pgina yutuqlar bugun umuminsoniy qadriyatlarning oltin fondiga aylangandir.

O‘zbek arxeologiyasining bugungi kundagi bosh maqsadi, xalqimizning o‘tmishi haqida haqqoniy manzarani yaratish, uni eng qadimgi davlatlardan to

temuriylar davrigacha bo'lgan boy tarixini jahon tarixidan ajratmagan, qarama-qarshi qo'ymagan holda o'rganish, Sharq bilan Farb o'rtasidagi muloqotlarga katta hizmat qilgan o'zbek xalqining jahon madaniyati xazinasiga qo'shgan hissasini ko'rsatish va Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati, davlatchiligini shakllanishida ajdodlarimizning xizmatlarini aniqlashdan iboratdir.

O'zbekiston arxeologiyasini rivojlantirish konsepsiyasi Respublikamizning gullab - yashnashiga, uni xalqaro maydonda obro-e'tiborini oshishiga, millatning tarixiy va ma'naviy ongini o'sishiga, ozod vatanimizning ozod fuqarosini har tomonlama yetuk, vatanparvar, barkamol, xalqparvar qilib tarbiyalashga xizmat qiladi.

O'zbekiston hududida arxeologiya merosi ob'ektlarining ilmiy jihatdan o'rganila boshlaganligiga 100 yildan ko'proq vaqt o'tdi. Shunday bo'lsa-da, arxeologiya merosi ob'ektlarining muhofaza qilish, saqlash va tadqiqot ishlarini olib borish uchun alohida e'tibor qaratilishi mustaqillik yillariga to'g'ri keladi¹.

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Ya. G'ulomov nomidagi Arxeologik tadqiqotlar institutida 1959 yildan "O'zbekiston moddiy madaniyat tarixi", 2002 yildan "O'zbekistonda arxeologik tadqiqotlar" yillik to'plamlari nashr etilib, ularda Respublikamiz hududida olib borilayotgan arxeologik tadqiqotlarning umumlashma ilmiy xulosalari berib boriladi. 2010 yildan esa "O'zbekiston arxeologiyasi" ilmiy jurnali nashr etila boshlandi².

Sobiq ittifoq davrida ko'plab arxeologiya ob'ektlari tekislab paxtazorga aylantirilganligi hech kimga sir emas.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda bir qancha qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilindi. Ular arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish, foydalanish va tadqiq etishga huquqiy asos bo'lib xizmat qildi.

2001- yilda bir guruh o'zbek arxeologlari tomonidan O'zbekistonda arxeologiya fanini rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi³.

¹ Т.Ш. Ширинов, А.Э. Бердимуродов, М.Х. Пардаев. Ўзбекистонда археология фанининг шаклланиши ва ривожланиши тарихидан. Ўзбекистон археологияси, Самарқанд, 2010, 1-сон, 13-бет.

² Т.Ш. Ширинов, А.Э. Бердимуродов, М.Х. Пардаев. Ўзбекистонда археология фанининг шаклланиши ва ривожланиши тарихидан. Ўзбекистон археологияси, Самарқанд, 2010, 1-сон, 13-бет.

³ Т. Ширинов. Ўзбекистонда археология фанини ривожлантириш концепцияси. Ўзбекистон моддий маданияти тарихи. 32-нашри, Тошкент, "Фан", 2001, 7-11-бетлар.

2010- yilda Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi tomonidan "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish: nazariya va amaliyot" mavzuida ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazilgan. Unda deputatlar, vazirlik hamda idoralar, ilmiy tadqiqot va ta'lim muassasalari, fuqarolik jamiyati institutlari vakillari, professor-o'qituvchilar, jurnalistlar qatnashgan.

1.2. Mustaqillik yillarida arxeologiyaga bo'lgan e'tiborning qonun hujjatlarida aks etishi

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda boy hamda bebaho tarixiy, madaniy va ma'naviy merosni tiklash, saqlash, o'rganish, targ'ib etish, ularni kelajak avlodga bekamu ko'st yetkazish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning uchun zarur institutsional hamda tashkiliy-huquqiy poydevor yaratildi. Xususan, Konstitutsiyamizda fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburligi, madaniyat yodgorliklari davlat muhofazasida ekani o'z ifodasini topgan. Shu asosda "Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to'g'risida"gi, "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi hamda boshqa qonunlar, hukumatning sohaga doir o'nga yaqin qarorlari hayotga tatbiq etildi, bir qator xalqaro konvensiyalar O'zbekiston tomonidan ratifikatsiyalandi. Pirovardida madaniy meros ob'ektlarini qayta tiklash, muhofaza qilish va ulardan foydalanish, milliy qonunchilikni umume'tirof etilgan normalar bilan uyg'un rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Bugungi kunda yurtimizda madaniy merosning 7500 dan ziyod ko'chmas ob'ektlari mavjud. Ularning yarmidan ko'pi arxeologik durdonalar sanaladi. O'z navbatida, muzeylarda yuz minglab ko'char ob'ektlar, arxivlarda millionlab hujjatlar saqlanayotir. Ayni chog'da diyorimizdagi tarixiy, arxitektura va shaharsozlik ob'ektlarini qamrab olgan 110 ta aynan tarixiy-madaniy meros namunalaridir. Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 7 oktyabrdagi qarori bilan tasdiqlangan 2010 - 2020 yillarda nomoddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturi ijrosi yuzasidan o'tgan yillarda amalga oshirilgan ishlar, kelgusidagi vazifalar muhokama etilgan.

Anjumanda ko‘rib chiqilgan masala yuzasidan qator fikr-mulohazalar bildirilgan. Xususan, madaniy meros ob‘ektlari atrofida, ularga olib boruvchi yo‘nalishlarda xizmat ko‘rsatish hamda servisni rivojlantirish, bu sohadagi xususiy tadbirkorlik va kichik biznes sub‘ektlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda ularga taqdim etiladigan imtiyozlar ko‘lamini kengaytirish maqsadga muvofiq ekanligi aytib o‘tilgan. Yoshlarni bebaho tarixiy merosni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash ruhida tarbiyalash esa ularda milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usini yanada kuchaytirish, jamiyatda yuksak ma‘naviyatni teran qaror toptirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, madaniy meros ob‘ektlarini muhofaza qilishda mas‘ul mutasaddilar javobgarligini yanada oshirish yuzasidan takliflar bayon etilgan.

Tadbir qatnashchilari madaniy meros ob‘ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishga oid qonun va qonunosti hujjatlarini bugungi kun talablaridan kelib chiqib yanada maromiga yetkazish, tegishli huquqiy hujjatlar, shu jumladan, Davlat dasturlari ijrosi ustidan parlament hamda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish lozimligini ham alohida aytib o‘tishgan. Yakunda tavsiyalar ishlab chiqilib, qo‘mita qarori qabul qilingan.

O‘zbekiston Respublikasining **“Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi** qonuni 2001 yil 30 avgustda qabul qilingan⁴.

Bu Qonun orqali O‘zbekiston xalqining umummilliy boyligi bo‘lmish madaniy meros ob‘ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solinadi.

O‘zbekiston Respublikasining **“Arxeologiya merosi ob‘ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi** qonuni 2009 yil 13 oktyabrda qabul qilingan⁵.

Ushbu Qonunning maqsadi arxeologiya merosi ob‘ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

⁴ Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. LexUz.

⁵ Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. LexUz.

2014 yil 21 iyul O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **“Moddiy madaniy va arxeologiya merosi ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”**gi 200-sonli qarori qabul qilindi⁶.

Bu orqali O‘zbekiston xalqining umummilliy boyligi bo‘lmish moddiy madaniy va arxeologiya merosi ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish tizimini yanada takomillashtirish, noyob moddiy madaniy meros ob’ektlarini har tomonlama o‘rganish, ommalashtirish va targ‘ib qilish uchun shart-sharoitlar yaratish, O‘zbekistonning turizm salohiyatini oshirish maqsad qilingan.

Ushbu qaror bilan Madaniy va arxeologiya merosi ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish masalalarini muvofiqlashtirish bo‘yicha Hukumat komissiyasi (keyingi o‘rinlarda Hukumat komissiyasi deb ataladi) tashkil etilgan.

Quyidagilar Hukumat komissiyasining asosiy vazifalari etib belgilangan:

O‘zbekiston Respublikasi davlat va xo‘jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek nodavlat tashkilotlarining madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish masalalari bo‘yicha faoliyatini muvofiqlashtirish;

madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini amalga oshirish yuzasidan takliflar tayyorlash;

madaniy va arxeologiya merosi ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish jarayonida paydo bo‘ladigan masalalarni ko‘rib chiqish, ularni hal etish bo‘yicha chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish;

konservatsiyalash, restavratsiya-tiklash ishlari olib boriladigan moddiy madaniy va arxeologiya merosi ob’ektlarining har yillik ro‘yxatini tasdiqlash;

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi Madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy-ishlab chiqarish bosh boshqarmasining takliflari asosida konservatsiyalash, restavratsiya-tiklash ishlarini bajarish uchun pudrat tashkilotlari ro‘yxatini tasdiqlash;

⁶ Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. LexUz.

yuridik va jismoniy shaxslarga madaniy va arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish faoliyatida, madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishlarining oldini olishda ko'maklashish.

Quyidagilar Komissiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

O'zbekiston Respublikasi davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek nodavlat tashkilotlarning madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish masalalari bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirish;

madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini amalga oshirish yuzasidan takliflar tayyorlash;

madaniy va arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish jarayonida paydo bo'ladigan masalalarni ko'rib chiqish, ularni hal etish bo'yicha chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish;

konservatsiyalash, restavratsiya-tiklash ishlari olib boriladigan moddiy madaniy va arxeologiya merosi ob'ektlarining har yillik ro'yxatini tasdiqlash;

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy-ishlab chiqarish bosh boshqarmasining takliflari asosida konservatsiyalash, restavratsiya-tiklash ishlarini bajarish uchun pudrat tashkilotlar ro'yxatini tasdiqlash;

yuridik va jismoniy shaxslarga madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish faoliyatida, madaniy va arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishlarining oldini olishda ko'maklashish.

Komissiya o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq:

madaniy va arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlarini samarali amalga oshirishga yo'naltirilgan tadbirlarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi, ularning bajarilishini tashkil etadi;

konservatsiyalash, restavratsiya-tiklash ishlari olib boriladigan moddiy madaniy va arxeologiya merosi ob'ektlarining har yillik ro'yxatini ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi;

Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish ilmiy-ishlab chiqarish bosh boshqarmasining takliflar asosida konservatsiyalash, restavratsiya-tiklash ishlarini bajarish uchun pudrat tashkilotlari ro'yxatini tasdiqlaydi;

davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan madaniy va arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlarining bajarilishi amaliyotini ko'rib chiqadi;

madaniy va arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish bo'yicha qonun hujjatlarini qo'llashga doir tavsiyalar ishlab chiqadi;

madaniy va arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi qonun hujjatlarining eng muhim loyihalarini ko'rib chiqadi;

madaniy va arxeologiya merosi ob'ektlarining muhofaza qilinishi, saqlanishi va ulardan foydalanilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish tartibi bo'yicha takliflar ishlab chiqadi.

Komissiya quyidagi huquqlarga ega:

Komissiyaga yuklangan vazifalarni amalga oshirish uchun ishchi guruhlar tuzish va ularda ishlash uchun belgilangan tartibda tegishli mutaxassislarni jalb etish;

vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning, mahalliy davlat hokimiyati organlari vakillarining madaniy va arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish masalalari bo'yicha axborotlarini eshitish;

davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlariga zarur ma'lumotnomalar va boshqa materiallarni, qonun hujjatlari loyihalarini tayyorlash, madaniy va arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi qonun hujjatlarini hamda Komissiya qarorlarini bajarishni tashkil qilish masalalari bo'yicha topshiriqlar berish.

Komissiyaning shaxsiy tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Komissiya a‘zolari o‘z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiradi.

Komissiya tomonidan tuzilgan ishchi guruhlarda ishlash uchun belgilangan tartibda mutaxassislar, olimlar, ekspertlar hamda tashkilotlar va muassasalarning, shu jumladan faoliyati sohasiga madaniy va arxeologiya merosi ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish masalalari kiradigan xorijiy tashkilotlar va muassasalarning vakillari jalb etilishi mumkin.

2017 yil 16 oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **“Namangan viloyatining To‘raqo‘rg‘on tumanida «Axsikent» arxeologiya merosi ob’ektini muhofaza qilish va tadqiq etish yodgorlik majmuasini tashkil etish to‘g‘risida”gi** 831-sonli qarori qabul qilindi⁷.

Qarorda xalqimizning qadimiy tarixi va boy madaniyatini tiklash, muqaddas qadamjolarini obod qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni izchil davom ettirish maqsadi qo‘yilgan.

2018 yil 29 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **“Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi «Mingtepa» arxeologiya merosi ob’ektini muhofaza qilish, tadqiq etish va undan oqilona foydalanish to‘g‘risida”gi** 1059-sonli qarori qabul qilindi⁸.

Qarorga xalqimizning qadimiy tarixi va boy madaniyatini tiklash, Andijon viloyati Marhamat tumanidagi «Mingtepa» arxeologiya merosi ob’ektini chuqur ilmiy o‘rganish, keng targ‘ib qilish, muhofaza qilish va tadqiq etish hamda tashrif buyuruvchilar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish asos qilib olingan.

2018 yil 2 oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **“Namangan viloyatining Kosonsoy tumanida «Mug‘tepa» arxeologiya merosi ob’ektini muhofaza qilish va tadqiq etish majmuasini tashkil etish to‘g‘risida”gi** 788-sonli qarori qabul qilindi⁹.

Qarorda xalqimizning qadimiy tarixi va boy madaniyatini tiklash, Namangan viloyati Kosonsoy tumanidagi «Mug‘tepa» arxeologiya merosi

⁷ Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. LexUz.

⁸ Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. LexUz.

⁹ Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. LexUz.

ob'ektini chuqur ilmiy o'rganish va keng targ'ib qilish, ishonchli muhofaza qilish, konservatsiyalash va asrab-avaylash, bu yerga tashrif buyuruvchilar uchun qulay shart-sharoit yaratish dolzarb vazifa qilib belgilangan.

2018 yil 19 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Moddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”**gi PQ-4068-sonli qarori qabul qilindi¹⁰.

Ushbu qarorning qabul qilinishidan asosiy maqsad moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, ilmiy o'rganish, ulardan oqilona foydalanish va yurtimizning sayyohlik salohiyatini oshirishda ularning o'rni va ahamiyatini oshirish hamda moddiy madaniy meros sohasidagi davlat nazoratini tubdan takomillashtirishdan iborat.

Davlat nazoratini amalga oshirishni kuchaytirish uchun yangi tashkiliy Madaniyat vazirligi huzurida Madaniy meros Departamenti tashkil etish ko'zda tutilgan.

Departamentning asosiy vazifalaridan etib quyidagilar belgilangan:

- moddiy madaniy meros, shu jumladan, arxeologiya merosi ob'ektlari, muzey ashyolari va kolleksiyalari hamda madaniy boyliklarni muhofaza qilish va ulardan foydalanishga oid qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan dalat nazoratini amalga oshirish;

- arxeologiya ashyolari davlat katalogini yuritish, arxeologiya tadqiqotlarini amalga oshirish tartibi va shartlariga rioya qilinishi, arxeologiya ashyolarining o'z vaqtida hisobga olish va davlatga topshirilishini nazorat qilish hamda ularni fan, madaniyat va ta'lim muassasalariga biriktirish, shuningdek arxeologiya tadqiqotlari bo'yicha ilmiy hisobotlarni qabul qilish, ekspertizadan o'tkazish va arxivini yig'ish, arxeologiya yodgorligini konservatsiyalash hamda muzeylashtirish.

Departament:

O'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari maxalliy ijro etuvchi xokimiyat organlari boshqa tashkilotlar

¹⁰ Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. LexUz.

va ularning mansabdor shaxslari shuningdek fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy xisoblanadi.

Davlat organlari va boshqa tashkilotlar rahbarlariga moddiy madaniy meros obektlari sohasida anqlangan qonun buzilish holatlarini ularga imkon beruvchi sabablar va shart sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida korib chiqilishi majburiy bolgan taqdimnoma kiritadi

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi Madaniy meros obektlarini muhofaza va ulardan foydalanish ilmiy-ishlab chiqarish bosh boshqarmasining huquqlari va majburiyatlari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi, mehnatga oid munosabatlar bundan mustasno ekanligi qayd etib qo'yilgan.

Shuningdek, ushbu qarorda arxeologiya tadqiqotlari natijalarini e'lon qilib borish, arxeologiya tadqiqotlari olib boruvchi muassasalarning texnik bazalarini mustahkamlash kabilar ham ko'zda tutilgan.

Shunday qilib, mustaqillik yillarida qabul qilingan bir qator qonun va qarorlar arxeologiya merosi ob'ektlarini muhofaza qilish va tadqiq etishga qanchalik e'tibor qaratilayotganligini o'zida aks ettiradi. Har bir arxeologiya merosi ob'ektini o'rganish, tadqiq etish orqali Vatanimiz tarixining bir sahifasi oydinlashib boradi. Ularning o'ziga xosligi va turli ma'lumot berishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, har bir arxeologiya merosi ob'ekti umummilliy boyligimiz hisoblanadi.

O'zbekistonda davlat ilmiy muassasalarida ishlaydigan, professional arxeolog xalqaro ilmiy shartnoma tuzish va arxeologik tadqiqotlar olib borish huquqiga ega. Bu ilmiy muassasalar qatoriga O'zR FA tarkibidagi tarixiy muammolar bilan shug'ullanuvchi ilmiy tadqiqot institutlari (arxeologiya, san'atshunoslik), tarkibida arxeologiya kafedralari mavjud bo'lgan Oliy ta'lim muassasalari (O'zMU, SamDU, NukusDU, TerDU), arxeologiya faniga mutaxassislashgan muzeylar (Termiz arxeologiya muzeyi, Samarqanddagi Afrosiyob muzeyi, Buxoro o'lkashunoslik muzeyi, Temuriylar Davlat muzeyi, O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi va boshqalar).

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. Karimovning 2001 yil 30 avgustida imzolagan "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va

ulardan foydalanish to'g'risida" qonun professional arxeolog va tarixchilar uchun dasturul amal bo'lib xizmat qilmoqda. Unda O'zbekiston hududida joylashgan madaniy me'ros ob'ektlarini saqlash, muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida qonun va qoidalar ishlab chiqilgan.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI
MADANIY MEROS OB'EKTLARINI MUHOFAZA QILISH VA
ULARDAN FOYDALANISH TO'G'RISIDA**

(O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001 y., 9-10-son, 180-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004 y., 25-son, 287-modda; 2005 y., 37-38son, 277-modda; 2009 y., 41-son, 440-modda; 2013 y., 18-son, 233-modda)

I. UMUMIY QOIDALAR

Ushbu Qonunning maqsadi O'zbekiston xalqining umummilliy boyligi bo'lmish madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Qoraqalpog'iston Respublikasida madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlar Qoraqalpog'iston Respublikasi qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

ansambllar — tarixan tarkib topgan hududda aniq ko'zga tashlanadigan, atrof manzarasi bilan umumiyligi yoki aloqadorligi tarixiy, arxeologik, me'moriy, estetik yoki ijtimoiy-madaniy qimmatga ega bo'lgan, ijtimoiy, ma'muriy, diniy, ilmiy, o'quv-ta'lim, istehkom, saroy, turarjoy, savdo, ishlab chiqarish va boshqa ahamiyatga molik hamda rassomlik, haykaltaroshlik, amaliy bezak san'ati, me'morchilik asarlari bilan bog'liqlikda alohida yoki o'zaro birgalikda turgan

yodgorliklar, imoratlar va inshootlar guruhlar, shuningdek tarixiy tarhlarning hamda manzilgohlar imoratlarining qoldiqlari, landshaft arxitekturasini va bog‘rog‘ san‘ati asarlari (bog‘lar, istirohat bog‘lari, xiyobonlar, sayilgohlar);

diqqatga sazovor joylar — inson va tabiat ijodining mushtarak mahsuli, shuningdek tarixiy, arxeologik, shaharsozlik, estetik, etnologik yoki antropologik qimmatga ega bo‘lgan hududlar, shu jumladan xalq hunarmandchiligi maskanlari, tarixiy manzilgohlar yoki shaharsozlik tarhi markazlari va tarixiy (shu jumladan harbiy) voqealar, yodgorliklar, atoqli tarixiy shaxslarning hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan imoratlar, xotira joylari, tabiiy landshaftlar, shuningdek ko‘hna shaharlar, shahristonlar, manzilgohlar, qarorgohlar imoratlarining madaniy qatlamlari, qoldiqlari, marosimlar bajo etiladigan joylar;

yodgorliklar — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan ayrim imoratlar, binolar va inshootlar, ular bilan bog‘liq bo‘lgan rassomlik, haykaltaroshlik, amaliy bezak san‘ati asarlari hamda shu imoratlar, binolar va inshootlarning tarixan tarkib topgan hududlari, shuningdek memorial uylar, kvartiralar, qabristonlar, maqbaralar va ayrim qabrlar, monumental san‘at asarlari, fan va texnika (shu jumladan harbiy texnika) ob‘ektlari, antropologiya, etnografiya, numizmatika, epigrafika, kartografiya, fotografiya materiallari, kinofilmlar, audio-, video yozuvlar hamda boshqa jismlardagi yozuvlar, adabiyot va san‘at asarlari, arxiv, qo‘lyozma va chizma hujjatlar, qadimgi qo‘lyozma kitoblar, harf terish usulida chiqarilgan dastlabki kitoblar, nodir va noyob nashrlar, notalar, muqaddas buyumlar va memorial xususiyatga ega bo‘lgan ashyolar, tosh haykallar, qoyaga o‘yib solingan tasvirlar, arxeologiya yodgorliklari; **madaniy meros ob‘ektlari** — moddiy va nomoddiy madaniy meros ob‘ektlari;

moddiy madaniy meros ob‘ektlari — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan ansambllar, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar;

nomoddiy madaniy meros ob‘ektlari — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so‘z, raqs, musiqa, tomosha san‘ati), shuningdek ular hamda xalq badiiy hunarmandchiligi

va amaliy san'ati bilan bog'liq bilimlar, ko'nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlar. (3-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2009 yil 9 oktyabrdagi O'RQ-228sonli Qonuni tahririda — O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009 y., 41son, 440-modda)

Moddiy madaniy meros ob'ektlari quyidagi toifalarga bo'linadi:

butun mamlakat tarixi va madaniyati uchun alohida ahamiyatga molik tarixiy, ilmiy, me'moriy, badiiy va memorial qimmatga ega bo'lgan respublika ahamiyatidagi moddiy madaniy meros ob'ektlari;

viloyat, tuman, shahar tarixi va madaniyati uchun alohida ahamiyatga molik tarixiy, ilmiy, me'moriy, badiiy va memorial qimmatga ega bo'lgan mahalliy ahamiyatdagi moddiy madaniy meros ob'ektlari¹.

(4-modda O'zbekiston Respublikasining 2009 yil 9 oktyabrdagi O'RQ-228-sonli Qonuni tahririda — O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009 y., 41-son, 440-modda)

II. MADANIY MEROS OBYEKTLARINI MUHOFAZA QILISH VA ULARDAN FOYDALANISH SOHASIDAGI DAVLAT BOSHQARUVI

Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi «O'zarxiv» agentligi va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

(5-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2005 yil 15 sentyabrdagi O'RQ-5-son Qonuni tahririda — O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2005 y., 37-38-son, 277-modda)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini amalga oshiradi;

madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturlarini tasdiqlaydi;

Moddiy madaniy meros ob'ektlarining davlat kadastrini va Nomoddiy madaniy meros ob'ektlarining ro'yxatini yuritish tartibini belgilaydi;

(6-moddaning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2009 yil 9 oktyabrdagi O'RQ-228-sonli Qonuni tahririda — O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009 y., 41-son, 440-modda)

madaniy meros ob'ektlarining muhofaza qilinishi, asralishi va ulardan foydalanilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish tartibini belgilaydi;

respublika ahamiyatidagi moddiy madaniy meros ob'ektlarining, shu jumladan Umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan ob'ektlarning hududlari va muhofaza tegralaridan foydalanish tartibotlarini tasdiqlaydi;

(6-moddaning oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2009 yil 9 oktyabrdagi

O'RQ-228-sonli Qonuni tahririda — O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami,

2009 y., 41-son, 440-modda)

tarixiy-madaniy qo'riqxonalarni, muzey-qo'riqxonalarni va tarixiy manzilgohlarni tuzish tartibi va saqlash tartibotini belgilaydi;

madaniy meros ob'ektlarini tarixiy-madaniy ekspertizadan o'tkazish tartibini belgilaydi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

(7-moddaning nomi O'zbekiston Respublikasining 2005 yil 15 sentyabrdagi O'RQ-5-son Qonuni tahririda — O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2005 y., 37-38-son, 277-modda)

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi:

(7-moddaning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2005 yil 15 sentyabrdagi O'RQ-5-son Qonuni tahririda O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2005 y., 37-38-son, 277-modda)

yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda qatnashadi;

(7-moddaning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2009 yil 9 oktyabrdagi O'RQ-228-sonli Qonuni tahririda — O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami,

2009 y., 41-son, 440-modda) moddiy madaniy meros obyektlarini ilmiy va ilmiy-texnik tadqiq etish, konservatsiyalash, ta'mirlash hamda hozirgi zamonda foydalanishga moslashtirish bo'yicha davlat dasturlarini amalga oshiradi;

(7-moddaning to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2009 yil 9 oktyabrdagi O'RQ-228-sonli Qonuni tahririda — O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009 y., 41-son, 440-modda)

madaniy meros ob'ektlarining aniqlanishi, hisobga olinishi, muhofaza qilinishi,

targ'ib qilinishi va ulardan foydalanilishini ta'minlaydi;

madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish masalalari bo'yicha davlat boshqaruvi organlarining faoliyatini muvofiqlashtirib boradi;

Moddiy madaniy meros ob'ektlarining davlat kadastrini va Nomoddiy madaniy meros ob'ektlarining ro'yxatini yuritadi;

(7-moddaning yettinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2009 yil 9 oktyabrdagi O'RQ-228-sonli Qonuni tahririda — O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009 y., 41-son, 440-modda)

madaniy meros ob'ektlarining tarixiy-madaniy ekspertizasini tashkil etadi va amalga oshiradi; qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi «O'zarxiv» agentligi O'zbekiston Respublikasining Milliy arxiv fondida turgan madaniy meros hujjatli ob'ektlarini o'ziga berilgan vakolatlarda doirasida hisobga olinishi, muhofaza qilinishi va ulardan foydalanilishini amalga oshiradi.

(8-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2004 yil 30 apreldagi 621-II-son Qonuni tahririda — O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2004 y., 25-son, 287-modda)

Mahalliy davlat hokimiyati organlari o‘zlariga berilgan vakolatlar doirasida o‘z hududlarida joylashgan madaniy meros ob’ektlarini aniqlaydilar hamda ularni hisobga oladilar, muhofaza qiladilar, asraydilar va ulardan foydalanadilar, madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining ijro etilishini ta’minlaydilar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va jamoat birlashmalarini madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish tadbirlarini o‘tkazishga jalb etadilar.

III. MADANIY MEROS OB’EKTLARINI DAVLAT TOMONIDAN MUHOFAZA QILISH

Madaniy meros ob’ektlarini davlat tomonidan muhofaza qilish bu madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasida davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi organlar tomonidan ko‘riladigan huquqiy, tashkiliy, moliyaviy, axborotga doir, moddiy-texnikaviy va boshqa chora-tadbirlar tizimidir.

Madaniy meros ob’ektlarini davlat tomonidan muhofaza qilish:

tarixiy-madaniy qimmatga ega bo‘lgan ob’ektlarni davlat hisobiga olish, hamda Moddiy madaniy meros ob’ektlarining davlat kadastrini va Nomoddiy madaniy meros ob’ektlarining ro‘yxatini yuritish;

madaniy meros ob’ektlarining ilmiy va ilmiy-texnik tadqiq etilishini rivojlantirish;

madaniy meros ob’ektlarini tarixiy-madaniy ekspertizadan o‘tkazish; moddiy madaniy meros ob’ektlari muhofaza tegralarining loyihalarini ishlab chiqish;

moddiy madaniy meros ob’ektlarini asrash bo‘yicha ishlarni amalga oshirish, shuningdek moddiy madaniy meros ob’ektlarida ilmiy va ilmiy-texnik tadqiqotlar o‘tkazish uchun ruxsatnomalar berish;

(10-moddaning ikkinchi qismi oltinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2013 yil 30 apreldagi O‘RQ-352-sonli Qonuni tahririda — O‘R QHT, 2013 y., 18-son, 233-modda) alohida tartibga solinishi lozim bo‘lgan va moddiy madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish bilan bog‘liq shaharsozlik faoliyati ob’ektlarining chegaralarini belgilash;

moddiy madaniy meros ob’ektlarida muhofaza belgilarini o‘rnatish; madaniy meros ob’ektlari holatining monitoringini amalga oshirish.

Madaniy meros ob’ektlarini davlat tomonidan muhofaza qilish qonun hujjatlariga muvofiq boshqa chora-tadbirlar orqali ham ta‘minlanishi mumkin.

(10-moddaning ikkinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2009 yil 9 oktyabrdagi O‘RQ228-sonli Qonuni tahririda — O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009 y., 41-son, 440-modda)

Moddiy madaniy meros ob’ektlarining davlat kadastri Davlat kadastrlari yagona tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi hamda u moddiy madaniy meros ob’ektlarining geografik joylashuvi, huquqiy maqomi, miqdor, sifat tavsiflari va bahosi to‘g‘risidagi yangilanib turiladigan ma‘lumotlar va hujjatlar tizimidan iborat bo‘ladi.

Moddiy madaniy meros ob’ektlarining davlat kadastrini yuritishga quyidagilar kiradi:

moddiy madaniy meros ob’ektlariga doir mulk huquqi va boshqa huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish;

moddiy madaniy meros ob’ektlarining miqdor va sifat tavsiflarini hisobga olish; moddiy madaniy meros ob’ektlarini sifat va qiymat jihatidan baholash; kadastr axborotini tizimga solish, saqlash va yangilab borish; moddiy madaniy meros ob’ektlarining holati haqida hisobotlar tuzish; Davlat kadastrlari yagona tizimiga kiritish uchun tegishli axborot taqdim etish;

foydalanuvchilarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda kadastr axboroti bilan ta‘minlash.

O‘zbekiston Respublikasining «Davlat kadastrlari to‘g‘risida»gi Qonunining 17moddasiga muvofiq davlat kadastrlariga doir axborot davlat

hokimiyati organlariga bepul, boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga esa belgilangan tartibda haq evaziga taqdim etiladi.

Nomoddiy madaniy meros ob'ektlarining ro'yxati nomoddiy madaniy meros ob'ektlari to'g'risidagi yangilanib turiladigan ma'lumotlar ko'rsatilgan hisobga olish hujjatidan iborat bo'ladi.

Nomoddiy madaniy meros ob'ektlarining ro'yxatini yuritishga quyidagilar kiradi: nomoddiy madaniy meros ob'ektini identifikatsiya qilish;

tegishli nomoddiy madaniy meros ob'ektlarining tarmoqlari, yo'nalishlari, janrlari va uslublarini tasniflash;

nomoddiy madaniy meros ob'ektlarini doimiy ravishda tiklovchi shaxslarni, guruhlarini ko'rsatish;

ma'lumotlarni tizimga solish, saqlash va yangilab borish;

nomoddiy madaniy meros ob'ektlarining sifat holatini aniqlash va uning natijalari bo'yicha hisobotlar tuzish.

Moddiy madaniy meros ob'ektlarining davlat kadastrini va Nomoddiy madaniy meros ob'ektlarining ro'yxatini yuritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Qarang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 29 iyuldagi 269sonli qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi madaniy meros ob'ektlari davlat kadastrini yuritish tartibi to'g'risida»gi nizom va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 23 fevraldagi 47-sonli «Nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi qarori.

(11-modda O'zbekiston Respublikasining 2009 yil 9 oktyabrdagi O'RQ-228-sonli Qonuni tahririda — O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009 y., 41-son, 440-modda)

Tarixiy-madaniy qimmatga ega bo'lgan ob'ektlarni Moddiy madaniy meros ob'ektlarining davlat kadastriga yoki Nomoddiy madaniy meros ob'ektlarining ro'yxatiga kiritish O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek yuridik va jismoniy shaxslarning takliflari asosida amalga oshiriladi.

Tarixiy-madaniy qimmatga ega bo'lgan ob'ektlarni Moddiy madaniy meros ob'ektlarining davlat kadastriga yoki Nomoddiy madaniy meros ob'ektlarining ro'yxatiga kiritish maqsadga muvofiqligi to'g'risida tarixiy-madaniy ekspertiza xulosasi olingan kundan e'tiboran mazkur ob'ektlar aniqlangan madaniy meros ob'ektlari jumlasiga kiritiladi.

Arxeologiya yodgorliklari topilgan paytidan e'tiboran aniqlangan moddiy madaniy meros ob'ektlari jumlasiga kiritiladi.

Tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan yangi aniqlangan moddiy madaniy meros ob'ektlari Moddiy madaniy meros ob'ektlarining davlat kadastriga kiritilishi to'g'risidagi masala hal qilingungacha ushbu Qonun talablariga muvofiq muhofaza qilinishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi aniqlangan moddiy madaniy meros ob'ektining mulkdorini mazkur ob'ekt Moddiy madaniy meros ob'ektlarining davlat kadastriga kiritilganligi to'g'risida qaror qabul qilingan paytdan e'tiboran o'ttiz kun ichida xabardor qilishi shart.

(12-modda O'zbekiston Respublikasining 2009 yil 9 oktyabrdagi O'RQ-228-sonli Qonuni tahririda - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009 y., 41-son, 440-modda)

Moddiy madaniy meros ob'ektlarining davlat kadastriga kiritilgan moddiy madaniy meros ob'ektiga moddiy madaniy meros ob'ektining pasporti berilib, unga mazkur moddiy madaniy meros ob'ektini muhofaza qilish mazmunidan iborat ma'lumotlar va ob'ektning tavsiflari kiritiladi.

(13-modda O'zbekiston Respublikasining 2009 yil 9 oktyabrdagi O'RQ-228-sonli Qonuni tahririda - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009 y., 41-son, 440-modda)

Moddiy madaniy meros ob'ektini moddiy madaniy meros ob'ektlarining davlat kadastridan chiqarish, agar ob'ekt jisman to'la yo'qotilgan bo'lsa yoki moddiy madaniy meros ob'ekti sifatidagi o'z qimmatini yo'qotgan bo'lsa, tarixiy-madaniy ekspertiza xulosasi asosida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Moddiy madaniy meros ob'ektini Moddiy madaniy meros ob'ektlarining davlat kadastridan chiqarish to'g'risidagi qaror ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

(14-modda O'zbekiston Respublikasining 2009 yil 9 oktyabrdagi O'RQ-228-sonli Qonuni tahririda - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009 y., 41-son, 440-modda)

Madaniy meros ob'ektlarining tarixiy-madaniy ekspertizasi:

madaniy meros ob'ekti Moddiy madaniy meros ob'ektlarining davlat kadastriga yoki Nomoddiy madaniy meros ob'ektlarining ro'yxatiga kiritilishini asoslash;

moddiy madaniy meros ob'ektining toifasini belgilash; moddiy madaniy meros ob'ektining toifasi o'zgartirilishini asoslash; moddiy madaniy meros ob'ektini Moddiy madaniy meros ob'ektlarining davlat kadastridan chiqarish;

moddiy madaniy meros ob'ektlari muhofaza tegralari loyihalarining shaharsozlik va loyihalash hujjatlariga, shuningdek mo'ljallanayotgan yer qazish, yer tuzish, qurilish, melioratsiya, xo'jalik ishlari va boshqa ishlarning moddiy madaniy meros ob'ektlarini asrash talablariga muvofiqligini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Madaniy meros ob'ektlarining tarixiy-madaniy ekspertizasi

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan tashkil etiladi va amalga oshiriladi.

(15-modda O'zbekiston Respublikasining 2009 yil 9 oktyabrdagi O'RQ-228-sonli Qonuni tahririda - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009 y., 41-son, 440-modda)

Tarixiy-madaniy ekspertiza ob'ektlari quyidagilardir: xo'jalik jihatidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan yer uchastkalari, agar ularda moddiy madaniy meros ob'ektlari joylashgan bo'lsa;

madaniy meros ob'ektlari Moddiy madaniy meros ob'ektlarining davlat kadastriga yoki Nomoddiy madaniy meros ob'ektlarining ro'yxatiga kiritilishini asoslovchi materiallar;

moddiy madaniy meros ob'ektlari Moddiy madaniy meros ob'ektlarining davlat kadastridan chiqarilishini asoslovchi materiallar;

moddiy madaniy meros ob'ektining toifasi belgilanishini yoki o'zgartirilishini asoslovchi materiallar;

ushbu Qonunda belgilangan hollarda shaharsozlik va loyiha hujjatlari;

moddiy madaniy meros ob'ektlariga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan yer qazish, yer tuzish, qurilish, melioratsiya, xo'jalik ishlari va boshqa ishlarni asoslovchi hujjatlar.

Tarixiy-madaniy ekspertiza yuzasidan batafsil ma'lumot uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 29 iyuldagi 269-sonli qarori bilan tasdiqlangan Madaniy meros ob'ektlarining tarixiy-madaniy ekspertizasi to'g'risidagi Nizomga qarang. (16-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2009 yil 9 oktyabrdagi O'RQ-228sonli Qonuni tahririda — O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009 y., 41son, 440-modda)

17-modda.Moddiy madaniy meros ob'ektlari qo'riqlanadigan tegralar

Moddiy madaniy meros ob'ektining o'zgartirilishi mumkin bo'lmagan o'ziga xos xususiyatlarini va uning tarixiy muhitini saqlab qolish maqsadida unga tutash hududda muhofaza tegralari, imoratlar qurish va xo'jalik faoliyatini tartibga solish tegralari, qo'riqlanadigan tabiiy landshaft tegralari belgilab qo'yiladi.

Muhofaza tegralari, imoratlar qurish va xo'jalik faoliyatini tartibga solish tegralari hamda qo'riqlanadigan tabiiy landshaft tegralarining chegaralari va ularni saqlash tartibotlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

(17-moddaning nomi va birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2009 yil 9 oktyabrdagi O'RQ-228-sonli Qonuni tahririda — O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009 y., 41-son, 440-modda)

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, mahalliy davlat hokimiyati organlari Moddiy madaniy meros ob'ektlarining davlat

kadastriga yoki Nomoddiy madaniy meros ob'ektlarining ro'yxatiga kiritilgan madaniy meros ob'ektlari holatini nazorat qilib turishi hamda moddiy madaniy meros ob'ektlarining asralishi yuzasidan joriy va istiqbol dasturlarini ishlab chiqish maqsadida besh yilda bir marta moddiy madaniy meros ob'ektlarining holatini ko'rikdan o'tkazishi va ularni qayd etib qo'yishi shart.

(18-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2009 yil 9 oktyabrdagi O'RQ-228sonli Qonuni tahririda - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009 y., 41son, 440-modda)

Tarix, san'at, fan, estetika, etnologiya yoki antropologiya nuqtai nazaridan har tomonlama beqiyos qimmatga ega bo'lgan madaniy meros ob'ektlari Umumjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya hamda Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiyada belgilangan tartibda tegishincha Umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga yoki Insoniyat nomoddiy madaniy merosining reprezentativ ro'yxatiga kiritish yo'li bilan jahon madaniy merosi ob'ektlari jumlasiga kiritilishi mumkin.

Madaniy meros ob'ektlari tarixiy-madaniy ekspertizasining xulosasi asosida madaniy meros ob'ektlarini Umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga yoki Insoniyat nomoddiy madaniy merosining reprezentativ ro'yxatiga kiritish to'g'risidagi takliflar hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti (YUNESKO) huzuridagi Umumjahon merosi qo'mitasi va Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha hukumatlararo qo'mita talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan hujjatlar yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasining YuNESKO ishlari bo'yicha Milliy komissiyasiga yuboriladi

(19-modda O'zbekiston Respublikasining 2009 yil 9 oktyabrdagi O'RQ-228-sonli Qonuni tahririda - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009 y., 41-son, 440-modda)

IV. MADANIY MEROS OB'EKTLARINI ASRASH

Moddiy madaniy meros ob'ektlarini asrash chora-tadbirlari ularni konservatsiyalash, tuzatish, ta'mirlash, hozirgi zamonda foydalanishga

moslashtirishni, shuningdek ular bilan bog‘liq ilmiy va ilmiy-texnik tadqiqotlar, loyihalash hamda ishlab chiqarish ishlarini o‘z ichiga oladi.

Moddiy madaniy meros ob‘ektini konservatsiyalash - moddiy madaniy meros ob‘ektini mavjud ko‘rinishida asrash va uning holati yomonlashuvining oldini olish maqsadida amalga oshiriladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadqiqotlar, loyihalash hamda ishlab chiqarish ishlari majmui.

Moddiy madaniy meros ob‘ektini tuzatish - moddiy madaniy meros ob‘ektining muhofaza mazmunini tashkil etuvchi o‘ziga xos xususiyatlarini o‘zgartirmagan holda ob‘ektni foydalanish holatida saqlab turish maqsadida amalga oshiriladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadqiqotlar, loyihalash hamda ishlab chiqarish ishlari majmui.

Moddiy madaniy meros ob‘ektini ta‘mirlash - moddiy madaniy meros ob‘ektining tarixiy va estetik qimmatini aniqlash hamda saqlab qolish va uning but saqlanishini ta‘minlash maqsadida amalga oshiriladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadqiqotlar, loyihalash hamda ishlab chiqarish ishlari majmui.

Moddiy madaniy meros ob‘ektini hozirgi zamonda foydalanishga moslashtirish - moddiy madaniy meros ob‘ektining tarixiy-badiiy qimmatini va asralishini o‘zgartirmasdan uning tarixiy-madaniy qimmatga ega bo‘lgan unsurlarini ta‘mirlash asosida undan hozirgi zamonda foydalanishga shart-sharoit yaratish maqsadida amalga oshiriladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadqiqotlar, loyihalash hamda ishlab chiqarish ishlari majmui.

Nomoddiy madaniy meros ob‘ektlarini asrash chora-tadbirlari ilmiy va ilmiy-texnik tadqiqotlar, hujjatlashtirish, targ‘ib qilish va rag‘batlantirish ishlarini o‘z ichiga oladi.

Moddiy madaniy meros ob‘ektini asrashga doir ishlar O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan beriladigan ruxsatnoma asosida amalga oshiriladi.

(20-moddaning matni O‘zbekiston Respublikasining 2009 yil 9 oktyabrdagi O‘RQ-228sonli Qonuni tahririda — O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009 y., 41son, 440-modda)

Yo'qotilgan moddiy madaniy meros ob'ekti alohida tarixiy, ilmiy, badiiy, shaharsozlik yoki o'zgacha ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan hollarda yo'qotilgan moddiy madaniy meros ob'ekti ta'mirlash usullari orqali asli holiga keltiriladi.

Yo'qotilgan nomoddiy madaniy meros ob'ekti alohida tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan hollarda yo'qotilgan nomoddiy madaniy meros ob'ekti ilmiy va ilmiy-texnik tadqiqotlar, ta'mirlash usullari orqali asli holiga keltiriladi.

Yo'qotilgan madaniy meros ob'ektini O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan asli holiga keltirish to'g'risidagi qarorni O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining madaniy meros ob'ektlarining tarixiy-madaniy ekspertizasi xulosasi asosidagi taqdimnomasiga binoan manfaatdor organlar va tashkilotlarning fikrini hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qabul qiladi.

(21-modda O'zbekiston Respublikasining 2009 yil 9 oktyabrdagi O'RQ-228-sonli Qonuni tahririda - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009 y., 41-son, 440-modda)

Arxeologiya yodgorliklarini tadqiq etish (qazish va qidirish)ga O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi beradigan ruxsatnomalar mavjud bo'lgan taqdirdagina yo'l qo'yiladi.

(22-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2005 yil 15 sentyabrdagi O'RQ-5-son Qonuni tahririda - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2005 y., 37-38-son, 277-modda)

Arxeologiya yodgorliklarini tadqiq etayotgan shaxslar ularning boshlang'ich konservatsiya qilinishi va asralishini ta'minlashlari shart.

Qazish va qidirish ishlari tugaganidan keyin, lekin ruxsatnomalarning amal qilish muddatlari o'tmasidan oldin, arxeologiya yodgorliklarini tadqiq etayotgan shaxslar O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligiga hisobot taqdim etishlari hamda qazish va qidirish natijasida topilgan

hamda tarixiy, ilmiy, madaniy yoki o'zgacha qimmatga ega bo'lgan ashyolarni belgilangan tartibda davlatga topshirishlari shart.

Qo'shimcha ma'lumot uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 196moddasiga qarang. (22-moddaning uchinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2005 yil 15 sentyabrdagi O'RQ-5-son Qonuni tahririda - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2005 y., 37-38-sn, 277-modda)

V. MODDIY MADANIY MEROS OB'EKTLARIGA EGALIK QILISH, ULARDAN FOYDALANISH VA ULARNI TASARRUF ETISH

Moddiy madaniy meros ob'ektlarining mulkdori o'ziga qarashli bo'lgan moddiy madaniy meros ob'ekti yo'qotilsa uning o'zni to'ldirib bo'linmasligini hamda uning tarixiy, madaniy yoki ilmiy ahamiyatini hisobga olgan holda, uni saqlab turish vazifasini zimmasiga oladi.

Moddiy madaniy meros obyektlari joylashgan yer uchastkalarining egalari (mulkdorlari) zimmasiga mazkur ob'ektlarni saqlab turish vazifasi, shuningdek qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar yuklanishi mumkin.

Moddiy madaniy meros ob'ektlarining ijarasi ijara shartnomasi asosida amalga oshirilib, unda moddiy madaniy meros ob'ektini saqlash talablari qayd etilgan bo'lishi kerak.

Davlat mulkida turgan moddiy madaniy meros ob'ektlari davlat tasarrufidan chiqarilishi va xususiylashtirilishi mumkin emas.

Moddiy madaniy meros ob'ektlarining mulkdorlari bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar:

moddiy madaniy meros ob'ektlarining tashqi va ichki ko'rinishini moddiy madaniy meros ob'ektlarining pasportiga kiritilgan muhofaza mazmuni ma'lumotlariga muvofiq holda saqlash;

(24-moddaning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 2013 yil 30 apreldagi O'RQ-352-sonli Qonuniga asosan chiqarilgan — O'R QHT, 2013 y., 18-son, 233-modda)

alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hududlarni saqlab turish tartibotini ta'minlash;

moddiy madaniy meros ob'ektining mulkdori tomonidan belgilanadigan shartlardagi moddiy madaniy meros ob'ektining hamma uchun ochiqqligi talablarini albatta bajargan holda ularning asralishini ta'minlashga majburlirlar.

Moddiy madaniy meros ob'ektidan foydalanish shartlari O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan mazkur moddiy madaniy meros ob'ektining, uning tevarak atrofidagi tabiiy muhitning muhofaza qilinishi, asralishi, targ'ib qilinishi va undan foydalanilishi uchun, jismoniy va yuridik shaxslar, shuningdek davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi uchun qay darajada zarur bo'lsa, shu darajada cheklanishi mumkin.

Xususiy mulkda turgan moddiy madaniy meros ob'ektidan foydalanish huquqi qonunda nazarda tutilgan hollarda sud qarori bilan cheklanishi mumkin.

Mazkur Qonunning 26-moddasiga berilgan sharhga qarang.

Moddiy madaniy meros ob'ektidan foydalanishda cheklashni joriy etish zaruriyatini yuzaga keltirgan holatlar yoki shart-sharoitlar bartaraf etilgan taqdirda mazkur ob'ektdan foydalanish huquqi to'la hajmda tiklanadi.

Moddiy madaniy meros ob'ektiga doir mulk huquqi qonun hujjatlariga muvofiq bekor qilinishi mumkin.

Xususiy mulkda turgan moddiy madaniy meros ob'ekti qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda sud qarori bilan mulkdordan olib qo'yilishi mumkin.

Agar mulkdor o'ziga qarashli tarix va madaniyat yodgorligiga xo'jasizlarcha munosabatda bo'lsa va uning yaxshi saqlanishini ta'minlamasa, zimmasida yodgorliklarni saqlash vazifasi bo'lgan davlat organlari mulkdorni yodgorlikka xo'jasizlarcha munosabatda bo'lishni to'xtatish haqida ogohlantiradilar. Agar mulkdor ushbu talabni bajarmasa, tegishli organlarning da'vosiga ko'ra sud yodgorlikni olib qo'yish haqida qaror chiqarishi mumkin, bu yodgorlik davlat mulkiga o'tadi. Olib qo'yilgan tarix va madaniyat yodgorligining qiymati mulkdorga kelishuvda belgilangan, nizo chiqqan taqdirda esa - sud tomonidan belgilangan miqdorda to'lanadi. Kechiktirib bo'lmaydigan hollarda tarix va madaniyat yodgorligini olib qo'yish haqidagi da'vo oldindan

ogohlantirmasdan ham qo'zg'atilishi mumkin (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 190-moddasi).

Umumiy mulkda turgan moddiy madaniy meros ob'ektlari va ularning ajralmas qismi

hisoblanadigan yer uchastkalari bo'linmaydi.

Davlat mulkida turgan moddiy madaniy meros ob'ekti tekin foydalanish shartnomasi shartlarida quyidagilarga berib qo'yilishi mumkin:

moddiy madaniy meros ob'ektlarini saqlash maqsadida faoliyat yuritayotgan jamoat birlashmalariga;

bolalar jamoat birlashmalariga; nogironlar jamoat birlashmalariga; diniy tashkilotlarga.

Moddiy madaniy meros ob'ektidan tekin foydalanish shartnomasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuziladi va u moddiy madaniy meros ob'ektini saqlash bo'yicha talablarni o'z ichiga olgan bo'lishi kerak.

Moddiy madaniy meros ob'ektidan foydalanish huquqi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda quyidagi hollarda bekor qilinadi:

moddiy madaniy meros ob'ektidan tekin foydalanish shartnomasi yoki ijara muddati o'tganidan keyin foydalanuvchi foydalanish huquqidan ixtiyoriy ravishda voz kechganda; foydalanuvchi-jismoniy shaxs vafot etganda; foydalanuvchi-yuridik shaxs tugatilganda; moddiy madaniy meros ob'ektiga foydalanuvchi qasddan zarar yetkazganda;

moddiy madaniy meros ob'ekti joylashgan yer uchastkasi davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilganda.

Moddiy madaniy meros obyektlaridan foydalanish huquqi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa hollarda ham bekor qilinishi mumkin.

(V bob O'zbekiston Respublikasining 2009 yil 9 oktyabrdagi O'RQ-228-sonli Qonunitahririda - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009 y., 41-son, 440-modda)

VI. ALOHIDA MUHOFAZA QILINADIGAN TARIXIY-MADANIY HUDUDLAR

Moddiy madaniy meros ob'ektlarining davlat kadastriga kiritilgan alohida tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan moddiy madaniy meros ob'ektlari hududida alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hududlar tashkil etilishi mumkin.

(29-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2009 yil 9 oktyabrdagi O'RQ228-sonli Qonuni tahririda — O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009 y., 41-son, 440-modda)

Alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hududlar tarixiy-madaniy qo'riqxonalar, muzey-qo'riqxonalar, tarixiy manzilgohlar ko'rinishida va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shakllarda tashkil etiladi.

Alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy hududlarni tashkil etish tartibi hamda ularni saqlash tartiboti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Diqqatga sazovor joy yoki uning bir qismi hamda shu tegrada joylashgan yodgorliklar va ansambllar birgalikda tarixiy-madaniy qo'riqxona hisoblanib, unda alohida tartibot o'rnatiladi. Bu tartibot moddiy madaniy meros ob'ektlari tevarak atrofidagi tarixiy muhit bilan birga asralishini, tarixiy-madaniy qo'riqxona hududining yaxlitligini, shuningdek mazkur hudud chegaralarida qurilish va xo'jalik faoliyati tartibga solib turilishini ta'minlaydi.

Tarixiy-madaniy qo'riqxona va u bilan bog'liq tabiiy landshaft tarkibiga kiruvchi moddiy madaniy meros ob'ektlarida muzeylar yaratilsa, shuningdek tarixiy-madaniy qo'riqxona hududida ilgari udum bo'lgan an'anaviy xo'jalik faoliyatini va boshqa faoliyatni tiklash zarurati tug'ilsa, mazkur tarixiy-madaniy qo'riqxona muzey-qo'riqxona deb hisoblanadi.

(30-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2009 yil 9 oktyabrdagi O'RQ-228sonli Qonuni tahririda — O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009 y., 41son, 440-modda)

Tarixiy-madaniy qo'riqxona va muzey-qo'riqxona chegarasi O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan tarixiy-madaniy reja

va (yoki) tarixiy-madaniy qo‘riqxonalar hamda muzey qo‘riqxonalarining taklif qilinayotgan chegarasini asoslab beruvchi boshqa materiallar asosida aniqlanadi.

(31-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2005 yil 15 sentyabrdagi O‘RQ-5-son Qonuni tahririda — O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2005 y., 37-38-son, 277-modda)

Tarixiy-madaniy qo‘riqxonalar va muzey-qo‘riqxonalar chegarasi diqqatga sazovor joyning chegarasiga to‘g‘ri kelmasligi mumkin.

Tarixiy manzilgoh deyilganda uning hududi doirasida o‘tmishda yaratilgan, tarixiy, estetik, ijtimoiy-madaniy, arxeologik, me‘moriy yoki shaharsozlik qimmatiga ega bo‘lgan va xalqning o‘ziga xosligini, uning jahon madaniyatiga qo‘shgan hissasini saqlab qolish uchun muhim ahamiyatga molik moddiy madaniy meros ob‘ektlari joylashgan manzilgohlar tushuniladi. *(32-moddaning birinchi qismi O‘zbekiston Respublikasining 2009 yil 9 oktyabrdagi O‘RQ228-sonli Qonuni tahririda — O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009 y., 41-son, 440-modda)*

Tarixiy manzilgohda joylashgan va shaharning muayyan bo‘lagi sifatida tarixiy qimmatga ega bo‘lgan barcha ob‘ektlar: rejaviy tarh, imorat, kompozitsiya, tabiiy landshaft, arxeologik qatlam, shahardagi turli (bo‘sh turgan, imoratlar qurilgan, ko‘kalamzorlashtirilgan) maydonlarning o‘zaro nisbati, katta-kichik yoki uzun-qisqa ko‘rinishlari, shahar qurilishining bo‘lak-bo‘lak va xaroba holidagi osori atiqalari, sahni, mahobati, tuzilishi, uslubi, materiallari, rangi va manzarali elementlari bilan ajralib turadigan binolar, inshootlarning shakli va tashqi qiyofasi muhofaza qilinishi kerak.

Tarixiy manzilgohdagi tabiiy tarkib topgan va inson qo‘li bilan yaratilgan manzaralar uyg‘unligi, tarixiy manzilgoh taraqqiyoti davrida unga xos bo‘lib qolgan turli jihatlar, shuningdek boshqa qimmatli elementlar saqlab qolinishi kerak.

Tarixiy manzilgoh hududi doirasida shaharsozlik, xo‘jalik faoliyati va boshqa faoliyat moddiy madaniy meros ob‘ektlari va mazkur manzilgohning boshqa qimmatli xususiyatlarini saqlab qolish sharti bilan amalga oshirilmog‘i lozim.

Moddiy madaniy meros ob'ektlarini, shuningdek tarixiy-madaniy yoki tabiiy qimmatga ega bo'lgan boshqa ob'ektlarni saqlab qolish maqsadida tarixiy manzilgohlarda qonun hujjatlariga muvofiq shaharsozlik faoliyatini tartibga solishning alohida tartibi belgilab qo'yiladi.

Tarixiy manzilgohlarda shaharsozlik faoliyatini tartibga solishning alohida tartibi madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi tegishli organning hamda arxitektura-shaharsozlik faoliyatini tartibga solish sohasidagi davlat boshqaruvi organlarining nazorati ostida o'tkaziladigan moddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish bo'yicha izchil va o'zaro bog'liq tadbirlar tizimidan iborat. Alohida tartib tarixiy-me'moriy, tarixiy-shaharsozlik, arxiv va arxeologiya tadqiqotlari asosida tarixiy manzilgoh hududi chegaralarida tarixiy-madaniy qimmatga ega bo'lgan yer uchastkalarida joylashgan, ham saqlanib qolgan, ham yo'qotilgan mazkur tarixiy manzilgohning rivojlanish bosqichlarini ko'rsatuvchi barcha shaharsozlik elementlari va inshootlarini asoslagan holda tarixiy-madaniy tayanch rejasini tuzishni, binolar hamda inshootlarning o'lchamlari va nisbatlariga, avtomobillar turadigan joylarni, reklamalar va lavhalarni joylashtirishni taqiqlash va cheklashlarga hamda moddiy madaniy meros ob'ektlarini saqlash uchun zarur bo'lgan boshqa cheklashlarga taalluqli shaharsozlik reglamentini o'z ichiga oladi.

Qo'shimcha ma'lumot uchun O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksining [7](#) va [41](#)moddalariga qarang. (33-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2009 yil 9 oktyabrdagi O'RQ-228sonli [Qonuni](#) tahririda — O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009 y., 41son, 440-modda)

VII. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

Madaniy meros ob'ektlarini davlat tomonidan muhofaza qilish bo'yicha faoliyatni moliyalashtirish manbalari O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari va byudjetdan tashqari mablag'lardir.

Yuridik va jismoniy shaxslarning mulki bo'lgan moddiy madaniy meros ob'ektlarining muhofaza qilinishi va ulardan foydalanilishi mulkdorlar va foydalanuvchilarning mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.

Moddiy madaniy meros ob'ektlarini foydalanishga berishdan, xizmatlar ko'rsatishdan, yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy ajratmalari hamda xayriyalaridan tushgan mablag'lar qonun hujjatlariga muvofiq moddiy madaniy-meros ob'ektlarini muhofaza qilish, asrash va targ'ib qilishga hamda moddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishda band bo'lgan xodimlarni moddiy rag'batlantirish uchun sarflanadi.

(34-moddaning matni O'zbekiston Respublikasining 2009 yil 9 oktyabrdagi O'RQ-228sonli Qonuni tahririda - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009 y., 41son, 440-modda)

Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish masalalari yuzasidan kelib chiqadigan nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishida aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Tarix yoki madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish qoidalarini buzish O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 64-moddasi asosida javobgarlikka tortishga asos bo'ladi. Shunga o'xshash huquqbuzarlikni takroran sodir qilish O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 132-moddasiga asosan javobgarlikka tortishga asos bo'ladi (Tarix yoki madaniyat yodgorliklarini nobud qilish, buzish yoki ularga shikast yetkazish).

II bob. Arxeologiyada xalqaro hamkorlikning rivojlanib borishi va mustaqillik davrida arxeologik tadqiqotlar

2.1 O'zbekistonda xalqaro ekspeditsiyalarning asosiy yo'nalishlari

O'zbekiston hududida joylashgan arxeologik yodgorliklarni o'rganish uchun birinchi navbatda ilmiy muassasa O'zbekiston FA Arxeologiya instituti qoshidagi Arxeologik dala qo'mitasiga murojaat qiladi. Arxeologik dala qo'mitasiga xat bilan birga arxeologik tadqiqot o'tkazishning ilmiy asosnomasi ilova qilinadi. Asosnomada arxeologik tadqiqot o'tkazishning maqsadi, qazishma

turi, ish ko'lamini, otryadning ilmiy tarkibi, finans masalalari, arxeologik tadqiqotning ish boshlash va tugallash vaqti aniq ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Ijobiy xulosa, ya'ni Ruxsatnoma olinganidan so'ng, professional arxeolog raxbarligida otryad shakllantiriladi. Otryadga arxeologlardan tashqari paleobotanik, paleozoolog, antropolog, numizmat, o'lkashunos kabi mutaxassislarning jalb etilishi maqsadga muvofiq.

O'zbekistonda xalqaro arxeologik tadqiqotlar o'tkazish YUNESKO tomonidan ishlab chiqilgan qoidalar asosida olib boriladi. O'zbekistonda arxeologiya xalqaro fanlar darajasiga chiqqan. Bu yerda jahonning eng rivojlangan arxeologiya markazlari ilmiy tadqiqotlar olib borishadi.

Mustaqillik yillarida nihoyatda faollashgan tadqiqotlar ko'lamini va ularning samarasi tufayli, O'zbekiston arxeologiyasi dunyo ilm-fani darajasiga ko'tarildi. Bunday natija esa, o'z navbatida, O'zbekiston arxeologiyasi uchun dunyodagi yetakchi arxeologiya markazlari bilan ilmiy hamkorlik o'rnatishga, teng huquqli asosda xalqaro shartnomalar tuzishga zamin yaratdi. O'zbekiston hududida - Avstraliya, AQSH, Germaniya, Chexiya, Italiya, Polsha, Rossiya, Fransiya, Yaponiya kabi davlatlarning arxeolog olimlari bilan hamkorlikda, xalqaro miqyosda, arxeologik tadqiqotlar amalga oshirila boshlandi.

Bugungi kunda Fransiya Respublikasi Ilmiy Tadqiqotlar Milliy Markazi bilan hamkorlikda tashkil etilgan O'zbek-Fransiya-Sug'diyona xalqaro ekspeditsiyasi qadimgi Afrosiyob va Ko'ktepa shahar xarobalarida keng miqyosda arxeologik qazishmalar olib bormoqda.

Afrosiyobda o'tkazilgan ko'p yillik xalqaro hamkorlik tadqiqotlari natijasida qadimgi shahar yodgorligining 7 m bo'lgan 220 ga ni o'rab olgan mudofaa devorlari ochib o'rganildi. Shuningdek, bu davrda Afrosiyobning shimoliy qismidagi 19 ga lik akropolni alohida devor bilan o'rab olingani, qurilish ishlarida mil.avvVIII-VII asrlar uchun g'oyat xususiyatli bo'lgan guvalaksimon g'ishtlardan foydalanilgani aniqlandi. Moddiy madaniyat namunalarining tahlili Afrosiyob shahar yodgorligining dastlabki davrlari aholisi ko'p asrlik, Ko'ktepa va Sarazmdagi ajdodlardan avlodlarga o'tib kelgan sug'orma dehqonchilik an'analarini davom ettirganliklarini ko'rsatdi

Afrosiyobning mudofaa devorlari undan deyarli ikki asr avval bunyod etilgan Kuktepa mudofaa devorlari tizimidan ancha qudratli va mukammal bo'lgan. Buning sababini mutaxassislar, ulug' davlatchilik siyosati orqali qo'shni xalqlarni zabt etishga katta ahamiyat bergan Ahomoniylar saltanatining istilosi xavfi bilan bog'laydilar. Ushbu tadqiqotlar natijasida, Turon o'lkasida Ahomoniylar istilosidan avvalgi tarixiy davrlardayoq urbanistik jarayonlar faol tarzda amalga oshgani o'z isbotini topdi. Shunday qilib, Samarqandning 2500 yil avval bunyod etilgan qadimiy devorlari ostidan undanda qadimiyroq mudofaa devorlari topildi va shaharning yoshi 2750 yildan kam emasligi isbotlanib bu tarixiy sana 2007-yilda xalqaro miqyosda, YUNESKO rahnamoligida nishonlandi.

Hozirgi kunlarda ushbu shahar hududida ilk islom davriga oid mahobatli saroy qoldiqlari, qoraxoniylar davriga oid o'ta noyob devoriy suratlar bilan ziynatlangan saroy xarobalari ochib o'rganilmoqda.

O'zbekiston-Fransiya-Sug'diyona arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan o'rganilayotgan Ko'ktepa yodgorligi Samarqand viloyati Chelak shahri yaqinida joylashgan. Bu yodgorlikda olib borilgan qazishmalar natijasida, Ko'ktepa So'g'diyona hududidagi eng qadimgi shaharlardan birining xarobalari ekanligi aniqlandi. Bu yodgorlikda mahobatli shahar mudofaa devorlari, muhtasham saroy qoldiqlari va shahar markazida qad rostlagan ulkan otashparastlar ibodatxonasining xarobalari ochildi. 1998-yilda Ko'ktepa shahar yodgorligining ark qismidan yana bir noyob topilma Saklar davriga oid ayol kishining qabri va undan 250 ga yaqin tilla taqinchoqlar - tillaqosh, tilla tugmachalar, kumush ko'zgu, yarim qimmatbaho toshlar va shishadan yasalgan munchoqlar kabi osori-atiqalarning topilishi katta ilmiy, olamshumul voqeilikka aylandi. "Sak malikasi xazinasini", "So'g'd malikasi" nomi bilan ilmiy muomalaga kirgan ushbu topilmalar fan nuqtainazaridan o'rganildi va amaldagi qonunlarga binoan Respublikamizning markaziy muzeylarida namoyish qilindi. Ko'ktepa shahar yodgorligini o'rganish natijasida, miloddan avvalgi X-IX asrlarga oid atrofi aylanma devor bilan mudofaalangan kal'a - qo'rg'onning hususiyatlari va undan milodiy eradan avvalgi II-I asrlarga taalluqli xazinaning topilishi o'zbek arxeologlarining mustaqillik yillaridagi eng yirik kashfiyotlaridan biri sifatida fan tarixi sahifalaridan o'rin oldi.

Fransiya Respublikasi Ilmiy Tadqiqotlar Milliy Markazining UMR-126-9 guruhi bilan tuzilgan O‘zbekiston-Fransiya-Baqtriya xalqaro ekspeditsiyasi Surxondaryo viloyatida tadqiqotlar olib bormoqda. Xalqaro ekspeditsiyaning asosiy tadqiqot makoni O‘rta Osiyoning qadim va o‘rta asrlardagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri Termizning tarixiy o‘rni Eski Termiz shahri xarobalari o‘rnida bo‘lib, bu yerda o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida, shaharning qadimiy yadrosi, shahristonning sharqiy qismida milodiy eradan avvalgi I ming yillik o‘rtalarida shakllangani aniqlandi. Tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, miloddan, avvalgi III-II asrlarda Termiz yirik siyosiy, iqtisodiy jihatdan kuchli va Yunon-Baktriya davlatining shimoliy sarhadlaridagi “forpost” shaharga aylangan. Shaharning eng gullab - yashnagan davri Kushonlar saltanati davriga to‘g‘ri keladi. Bu davrda Termizning umumiy maydoni 350 ga.ga yetadi, uning fortifikatsiya tizimlari mukammallikni kasb etadi. Daryo porti faoliyat ko‘rsatadi, shaharning madaniy ta’siri Amudaryoning quyi oqimidagi Xorazm sarhadlariga qadar yetib boradi (Pidaev, Lerish, 2001 s. 122-125). Aynan, mana shunday tadqiqotlarning natijasi sifatida 2001 yilda Termiz shahrining 2500 yillik yubileyi jahon miqyosida o‘tkazildi va bu tarixiy sana dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan e’tirof etildi.

O‘zbekiston-Germaniya xalqaro ekspeditsiyasi tomonidan Jarqo‘tonda o‘tkazilgan tadqiqotlar Sopolli madaniyati aholisini ma’naviy hayotida nafaqat otashparastlik, balki boshqa diniy tasavvurlar, xususan zoolatrik, ajdodlar ruhiga sig‘inish kabi ilohiy tushunchalar ham bo‘lganligini ko‘rsatdi. Qazishmalar davomida Jarqo‘ton qatlamlaridan topilgan sigir, tuya, burgut, ilon kabi jonivorlarning haykalchalari va ularning tahlili Jarqo‘ton aholisida zoolatrik tasavvurlarni shakllanganligini yaqqol ko‘rsatadi.

Jarqo‘tondan noyob topilma - vafot etgan kishining byust-haykalchasi va xomilador ayolning qorin bo‘shligidagi egizak, endi tugiladigan farzandlar (embrion) ning tasviri kadimgi shark xalqlarining o‘lim va qayta tug‘ilish-“hayot charxpalagi” xaqidagi falsafasining ramziy ma’nosini ifodalaydi (Shaydullaev, 2009, 27-28 s.).

Ma’lumki yozuv madaniyati namunalarini yoki uning ilk belgilarini u yoki bu qadimiy yodgorliklardan topilishi bu makonda ilk sivilizatsiyaning asosiy

belgilari mavjudligidan darak beradi. Jarqo‘tondan topilgan 47 ta sopol idish parchalarida piktografik belgilar qayd etilgan (Choriev, Shaydullaev, Annaev, 2007, 96 s.). Bu topilmalar va tahlillar Jarqo‘tonda bronza davrida yuksak madaniyat va ma’naviyatga ega jamoalar yashaganligini yana bir bor isbotladi

Italiyaning Rim Universiteti olimlari bilan Buxoro vohasida, shaxar xokimlari – buxorxudotlarning karorgohi-mashhur Varaxsha yaqinidagi Uchqulox yodgorligida qazishma ishlari olib borilmoqda. Kizishmalar natijasida, so‘nggi antik davrdan ilk o‘rta asrlarga o‘tish davrida bunyod etilgan va faoliyat ko‘rsatgan Uchqulox ko‘shkining mudofaa tizimlari, markaziy imoratlarining me’morchilik usullari o‘rganildi. Yodgorlikning markaziy imoratlari xonalaridan devoriy suratlarning qoldiqlarini topilishi diqqatga sazovordir. Devoriy suratlar qoldiqlarining dastlabki tahlillariga ko‘ra, bu yerda aksariyat xollarda tuya, ot kabi jonivorlarining o‘zaro kurashi tasvirlangan. Suratlar asosan skiflarning hayvonlar tasviri usulida (zverinyy stil) ishlangan. Devoriy suratlar Markaziy Sug‘d rang-tasvir san’ati namunalaridan bir muncha qadimgiroq bo‘lib, ular asosan V asr, kisman VI asr bilan davrlanadi. Uchqulox yodgorligi Varaxsha shahri mudofaa tizimi zanjiridagi qal’a qo‘rg‘onlardan biri bo‘lib, u va uning atrofidagi qishloq makonlari ko‘chmanchi chorvador xalqlarning talonchilik yurishlariga birinchilardan bo‘lib qarshilik ko‘rsatganlari hamkorlik tadqiqotlari davomida aniqlandi.

2000-yildan buyon O‘zbekiston-Italiya xalqaro qo‘shma ekspeditsiyasi Samarqand viloyatidagi Kofirqal’a yodgorligida kazishmalar olib bormoqda. Darg‘om kanalining chap qirg‘og‘ida joylashgan, ark, shahriston va raboddan iborat, umumiy maydoni 16 ga.ni tashkil qiladigan ushbu yodgorlikdagi tadqiqotlar yaxshi natijalar berdi. Bu yerdan 500 ga yaqin bullalarning topilishi Kofirqal’aning Samarqand Sug‘dida tutgan muhim ahamiyatini yaqqol ko‘rsatib turibdi. Bu bullalar Samarqandga Toxariston, Buxoro, Toshkent, Panjikent va Xurosondan yuborilgan xatlarga o‘rilgan surg‘ich muhrlar bo‘lib, topilmalar Samarqandning ilk o‘rta asrlardagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarini o‘rganishda muhim ahamiyatga molikdir.

2005-yildan boshlab O‘zbekiston-Yaponiya xalqaro qo‘shma ekspeditsiyasi Samarqand viloyati Paxtachi tumanidagi Dobusiya shaharchasida tadqiqotlar olib bormokda. Tadqiqotlar natijasida Dobusiyaning rabot qismi bundan 2200 yillar ilgari barpo qilinganligi isbotlandi. Ark, shahriston va raboddan iborat bo‘lgan Dobusiyada tadqiqotlar davom ettirilib hozirda shahar yodgorligining ark qismida qazishmalar olib borilmoqda Arkning markazidagi qazishmalar natijasida, qadimgi davrlarda X asrlargacha bo‘lgan madaniy qatlamlar ochildi. Qazishmalar paytida topilgan tangalar, shisha va sopol idishlar haqiqatan ham Dobusiya Buyuk Ipak yo‘li tizimida muhim rol uynagan shaharlardan biri bo‘lganligini ko‘rsatmoqda

Yaponiyaning Soka Universiteti olimlari bilan hamkorlikda Eski Termizdagi Qoratepa Budda ibodatxonasi xarobalarida olib borilayotgan arxeologik tadqiqotlar Termiz shahri buddaviylik dinining O‘rta Osiyodagi markazi bo‘lganligini isbotlabgina qolmasdan, balki jahon buddaviyligi tarixini o‘rganishda ham beqiyos ahamiyatga egadir. Tadqiqotlar natijasida, bir qator ilohiy haykallar, markaziy “stupa,” kxaroshtiy va braxma yozuv namunalarini topilishi va bu noyob topilmalarning ilmiy tahlili Kushonlar davrida Qoratepa o‘rnida markazlashgan Budda ibodatxonasi faoliyat ko‘rsatganini, ibodatxonada Budda ta’limotini Sharq va Uzoq Sharq mamlakatlariga tarqatuvchi missionerlar tayyorlangani haqidagi dastlabki fikrlarga asos bo‘ldi.

AQShning Kaliforniya Universiteti bilan tuzilgan xalqaro qo‘shma ekspeditsiya Shahrisabz yaqinidagi Sangirtepa, Podayotoqtepa va Uzunqir yodgorliklarida tadqiqotlar olib bordi. Natijada, Sangirtepaning 3 ga.ga yaqin markaziy qismi milodiy eradan avvalgi X-IX asrlarda aylanma mudofaa devorlari bilan o‘rab olingani, Ahomoniylar istibdodining dastlabki davrida bu yerda yopiq usuldagi ibodatxona faoliyat ko‘rsatgani, keyinchalik, bu inshoot ochiq usuldagi sig‘inish majmuasiga aylantirilgani aniqlandi. Milodiy eraning IV-V asrlarida Sangirtepa moddiy - madaniyatida ko‘chmanchi chorvadorlar madaniyati ta’siri ustuvor bo‘lganligi, Sug‘d uchun hozircha eng ko‘hna va original usulda ishlangan to‘rt oyoqli ostadonning topilishi, shubhasiz, ekspeditsiyaning muvaffaqiyatli ish olib borganini tasdiqlaydi. Sangirtepa yodgorliklar majmuasi bu hududda bundan 2700 yil avval shakllangan qadimiy shaharning bizgacha yetib kelgan xarobalari

bo'lib, ushbu qazishmalar natijalari Shahrisabz shahrining 2700 yillik yubileyi uchun ilmiy asos qilib olindi.

AQShning Missouri shtatidagi Vashington Universiteti bilan tuzilgan navbatdagi xalqaro ekspeditsiya O'zbekistonning markaziy qismi Jizzax viloyatida qidiruv ishlarini o'tkazmoqda. O'zbekiston-AQShUstrushona xalqaro ekspeditsiyasining maqsadi bronza va ilk temir davri kuchmanchi chorvador qabilalarining manzilgohlarini topish va ularni ilmiy jihatdan mukammal o'rganishdir. Ayni paytda, Zomin vohasida o'tkazilgan qidiruv tadqiqotlari muvaffaqiyatli natijalarni bermoqda.

Rossiyaning Ermitaj muzeyi bilan hamkorlikda tuzilgan ekspeditsiya esa Buxoro viloyatidagi Poykent shahar xarobalarida ish olib bormoqda. Hozirgi Qorako'l tumanida joylashgan bu kichik shaharcha arablar istilosiga qadar Markaziy Osiyoning eng yirik savdo manzillaridan biri bo'lgan. Poykentlik savdogarlar bir tomoni Rum (Vizantiya) va bir tomoni Xitoy bilan savdo-sotiq ishlari olib borganlar. Bu yerdan topilayotgan moddiy madaniyat namunalari ham aynan shundan dalolat bermoqda.

Polshaning Varshava Universiteti olimlari bilan Qizilqum cho'llaridagi neolit davri manzilgohlarida olib borilayotgan tadqiqotlar natijasida, bu cho'llar bir paytlar odamlarning yashashlari uchun qulay manzillar bo'lganligini va bu yerlarda ham odamlar yashaganliklarini isbotladi.

Rossiya Fanlar Akademiyasi Sibir bo'limi Arxeologiya va etnografiya instituti bilan hamkorlikda tuzilgan ekspeditsiya O'zbekistonning tosh davri yodgorliklarida keng miqyosda arxeologik qazishma ishlari olib bormokda. Bu ekspeditsiya tomonidan Toshkent vohasidagi Obi-Rahmat g'oridan hozirgi zamonaviy odamning eng qadimiy qoldiqlari topildi. Bu yirik kashfiyot natijasida zamonaviy odamning O'zbekiston hududida bundan 40-45 ming yil ilgari paydo bo'lganligi isbotlandi.

O'zbekiston mustaqilligi yillarida tuzilgan ushbu xalqaro ekspeditsiyalar faoliyati tufayli O'zbekistonning qadimiy madaniyatini o'rganish borasida muhim ilmiy kashfiyotlar amalga oshirilan va O'zbekiston hududi qadimgi sharq sivilizatsiyasining eng ko'hna markazlaridan biri, uning ajralmas tarkibiy qismi

bo'lganligini, bu xududda yashayotgan o'zbek xalqi qadimiy tarix ulkan bir sivilizatsiyaning merosxo'ri ekanligini butun dunyoga yanada kengroq ma'lum qildilar.

Arxeologiya instituti ilmiy jamoasi O'zbekiston mustaqilligining 20 yilligi shodiyonalarini g'oyat ko'tarinki ruhda o'tkazilgan tadqiqotlarning samarali natijalari bilan qarshi olmoqdalar O'tgan 20 yil davomida institut xodimlari tomonidan 1800 dan ortiq ilmiy maqola, 65 ta monografiya va to'plamlar, 22 ta risola nashrdan chiqarildi. Jumladan, o'tgan yillar mobaynida institut xodimlarining MDH va uzoq xorijda 300 dan ortik ilmiy maqolasi, 11 ta monografiyasi jahonning nufuzli nashriyotlarida chop etildi. Ushbu ishlarda institutning bir guruh yetakchi olimlari K.A. Abdullaev, A.A. Anorboev, Sh.B. Shaydullaev, G.I.

Bogomolov, A.A. Gritsina, BD. Matbabaev, J.K. Mirzaaxmedov, Sh.R. Pidaev, M.D. Isamiddinov, kabilar ayniqsa samarali faoliyat ko'rsatdilar.

Bunday xalqaro hamkorliklar yosh o'zbek arxeolog olimlarining ilmiy faoliyatlari uchun ham juda katta ahamiyatga ega bo'lmoqda. Shu kungacha institutning 3 ta yosh olimi Germaniyaning nufuzli Gumbold fondi stipendiyasiga, 2 ta xodim Yaponiyaning Xirayama stipendiyasiga, 6 ta xodim Germaniyaning DAAD fondi stipendiyasiga, 2 ta xodim Fransiyaning Didro fondi stipendiyasiga, 1 ta xodim Italiyaning Sharqiy Xristianlik instituti grantiga, 1 ta xodim Gresianing Aleksandr Onasis grantiga sazovor bo'ldilar.

Bugungi o'zbek arxeologiya maktabi muvaffaqiyatlarining asosiy tamal-toshini qo'ygan O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutida mazkur maskan tashkil etilgandan buyon shu kunlargacha yuqori darajada, sof ilmiy muhit hukmronlik qilib kelganligi va bu maskanda zamonaviy ibora bilan aytganda "jahon standartlari" darajasida tadqiqot ishlari olib borayotgan yuqori malakali mutaxassislarning jamlanganligi natijasidir.

O'zbek arxeologiyasining hozirgi kundagi bosh ilmiy yo'nalishi va maqsadi mamlakatimiz hududida shakllangan ko'xna madaniyat, Qadimgi Sharq madaniyatining ajralmas tarkibiy qismi ekanligini isbotlagan xolda, bu madaniyat tarixining o'nlab qirralarini tinimsiz tadqiq qilish, O'zbekiston mustaqilligi bergan

cheksiz imkoniyatlar sharofati bilan bu hududda yashayotgan millatlar va elatlarning ota meros, ilmiy, madaniy boyligi bo'lgan qadimiy tarixning haqqoniy manzarasini qayta, xolis yaratish yo'lidagi tinimsiz izlanishlardan iboratdir.

O'zbekiston arxeologiyasi hozirgi paytda millat manfaati, uning madaniy-ma'naviy hayoti, mustaqillik g'oyalari talab va istaklaridan kelib chiqqan holda faoliyat yuritmoqda, fanga xizmat qilmoqda.

2.2 Mustaqillik davrida arxeologik tadqiqotlar

Mustaqillikning dastlabki davrlaridan boshlab xalqimizning qadim o'tmishi, shonli tarixi, ajdodlarimizdan qolgan nodir madaniy merosni ilmiy o'rganish uni asrash bo'yicha yangicha yondashuv, talab va vazifalar davlat miqyosida kun tartibiga qo'yildi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A. Karnmovning 1998 yilda respublikamizning bir guruh yetakchi tarixchi, arxeologlari bilan o'tkazgan uchrashuvi va ushbu uchrashuv natijasi o'laroq Respublika Vazirlar Mahkamasining "O'zR FA Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida chiqqan qarori istikbolda tarixchi, arxeologlar tomonidan o'tkaziladigan tadqiqotlarning dasturi amali bo'lib xizmat qildi. Mazkur qarorning qadimgi tarix, xususan arxeologiyaga oid bandlaridagi vazifalardan kelib chiqqan holda, Arxeologiya instntutida O'zbekistonda Arxeologiya fanini rivojlantirish konsepsiyasi' ishlab chiqildi. Ikki bo'limdan iborat ushbu konsepsiyaning I qismidagi O'zbekistonning jahon sivilizatsiyasi tizimidagi ahamiyatli o'rni, dunyo tamadduniga qo'shgan ulkan hissasi, erishilgan arxeologik kashfiyotlar orqali asoslangan. Shuningdek, mazkur qismda O'zbekiston arxeolognyasining kelgusidagi istiqbolli vazifalari belgilangan. Konsepsiyaning II qismida qadimgi davrlardan temuriylar davrigacha o'zbek davlatchiligi va sivilizatsiyasining paydo bo'lishi, shakllanishi hamda rivojlanish bosqichlarining asosiy xususiyatlari, davriy chegaralari, taraqqiyot va inqiroz davrlari, ularni o'rganishning asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan. Konsepsiya yaratilgan kundan boshlab o'zbek arxeologiyasining bugungi kundagi bosh maqsadn. xalqimizning o'tmishi xaqidagi haqqoniy manzarani yaratish, uning eng qadimgi davrlardan temuriylar

zamonigacha bo'lgan boy tarixini jahon tarixidan ajratmagan, unga qarama-qarshi qo'ymagan holda o'rganish Shark bilan G'arb o'rtasidagi muloqotlarga katta xizmat qilgan o'zbek xalqining jahon madaniyati xazinasiga qo'shgan hissasini ko'rsatish va Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati, davlatchiligini shakllanishida ajdodlarimizning xizmatlarini aniqlashdan iborat bo'ldi¹¹. Buning natijasida, o'zbek davlatchiligining paydo bo'lishi ildizlari rivojlanish bosqichlari va taraqqiyoti darajasiga doir ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilib salmoqli yutuqlarga erishildi.

O'zbekiston arxeologiyasi hozirgi paytda millat manfaati, uning madaniy ma'naviy hayoti, mustaqillik g'oyalari talab va istaklaridan kelib chiqqan holda faoliyat yuritmoqda, fanga xizmat qilmoqda. Belgili tavallud yoshlari nishonlangan Ahmad al-Farg'oniy, imom Moturudiy, imom al-Buxoriy, Burxoniddin Marg'inoniy, soxibqiron Amip Temur, Mirzo Ulug'bek kabi ulug' salaflarimizning ilmiy merosi, ular yashab o'tgan davr madaniyati taraqqiyotini o'rganishda, Samarqand, Buxoro, Karshi, Shahrisabz, Xiva, Termiz, Toshkent, Marg'ilon singari qadimiy shaharlarimizning muborak tarixiy sanalarini rasman aniqlashda, o'zbek arxeologiyasining xizmatlari beqiyos bo'ldi. Ushbu yubiley tantanalarini BMTning maxsus bo'limi YUNESKO shafeligi ostida o'tkazilishi, so'nggi deyarli 20 yil davomida mamlakatimizda olib borilgan arxeologiya fani izlanishlarining naqadar serqirra va sermahsul bo'lganligidan dalolat berdi. Bunga qadim tariximizni har tomonlama, chuqur o'rganish uchun davlatimiz va yurtboshimiz tomonidan ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik, yaratilgan shart-sharoitlar asosiy tamal toshi bo'lganligini va ana shu omillar sababli O'zbekiston arxeologiyasi rivojlanib dunyoga tanilganligini alohida ta'kidlashga burchlimiz

Ko'lbuloq atrofidagi yodgorliklarning o'rganilishi.

Ushbu yodgorliklar Angren daryosining o'ng sohilidagi paleogen va bo'r-mel davri yotqiziqlar atrofida joylashgan. Bu qadimgi yotqiziqlar Qizilolmasoy, G'ishtsoy, Toshsoy va Angren daryolari irmoqlari bilan kesilgan bo'lib, ulardagi xom-ashyo yotqiziqlari ochilib qolgan. Ushbu yodgorliklar asosan, ustaxonalar

¹¹ Ширинов. 2001. 11 6.

bo'lib, ulardan ko'plab tosh buyumlar topilgan va bu shu joylarda ibtidoiy odamlar uzoq vaqt faoliyat yuritishganlaridan dalolat beradi.

Qizilolma-2. Ushbu topilmajoy Ko'lbuloqdan 1 km shimoli-g'arbda, sharqdan g'arbga qarab cho'zilib ketgan ohakli qoyalarning pastki qismida va dengiz sathidan 1200 m balandlikda joylashgan. Yodgorlik 1962 yilda O.M. Rostovsev tomonidan ochilgan¹². Qizilolma-2 yodgorligidan o'rta paleolit davriga oid kompleks aniqlangan bo'lib, u toshlarni chaqmoqlash hamda qisman tosh qurollar yasashga mo'ljallangan ustaxona ekanligi¹³ shuningdek, xom-ashyo konlari yaqinida joylashganligi aniqlangan. Yodgorlikning ustki qismidan yig'ib olingan materiallar o'rta va so'ngi paleolit davrlariga oid deb topilgan. Qizilolma-2 ning sharqiy qismi buldozer yordamida neogen davri qatlamlarigacha kesib yuborilgan va ushbu neogen davri qatlaminin ustidan 25 sm lik madaniy qatlam aniqlanib, undan 214 ta tosh buyum yig'ib olingan edi. Ushbu tosh buyumlar orasida qirg'ichlar, o'yib-kertib ishlangan qurollar va bir dona bifaslimand va h.k.lar aniqlangan. Ushbu tosh buyumlar ilk paleolit davri bilan sanalangan va Toshkent vohasidagi eng qadimgi materiallar hisoblanadi.

1994 yilgi Ko'lbuloq va uning atrofidagi tadqiqotlar O'zbekiston-Rossiya xalqaro qo'shma ekspeditsiyasi tomonidan amalga oshirildi. Unga O'zbekiston tomonidan akademik O'.I. Islomov, Rossiya tomonidan esa RFA MMTI professori N.K. Anisyutkinlar boshchilik qilishdi¹⁴. O'sha paytlargacha Qizilolma-2 ustaxonasi o'rta hamda so'ngi paleolit davriga oid hisoblanardi. Bu yerdagi neogen qatlamlarning bevosita ustki qismida yotadigan ilk pleystosen davriga oid qatlamdan yig'ilgan materiallar Qizilolmani ilk paleolit davrida ham hukm surganligini ko'rsatdi¹⁵.

¹² Касымов М.Р. Проблемы палеолита Средней Азии и Южного Казахстана. Автореф. дисс. на соискание ученой степени доктора наук. Новосибирск. 1990. – С. 8.

¹³ Касымов М.Р. Памятники каменного века в долине Ангrena // ОНУ. Ташкент, 1967. №2. – С. 57-58; Касымов М.Р. Кремнеобрабатывающие мастерские и шахты каменного века Средней Азии. Ташкент, 1972. – С. 31.

¹⁴ Анисюткин Н.К., Исламов У.И., Крахмаль К.А., Сайфуллаев Б.К., Хушваков Н.О. Предварительные исследования долины реки Ахангаран за 1994 г.». Санкт-Петербург. 1995. – С. 16-18; Анисюткин Н.К., Исламов У.И., Крахмаль К.А., Хушваков Н.О. Новые исследования палеолита в Ахангаране (Узбекистан). ИИМК, Санкт-Петербург 1995. – С. 12-28; Анисюткин Н.К., Исламов У.И., Крахмаль К.А., Сайфуллаев Б., Хушваков Н.О. Раскопки стоянки Кульбулак в 1995 г. Новые археологические открытия и изучение культурной трансформации. – СПб, 1996. – С. 63-65.

¹⁵ Исламов У.И., Анисюткин Н.К., Крахмаль К.А. Древнепалеолитический памятник Кызылалма // ОНУ. Ташкент, 1994. № 9-10. – С. 53-54.

2007-2008 yillarda O‘zbekiston-Rossiya paleolitchilar guruhi Qizilolma-2 da tadqiqot ishlarini davom ettirdi, natijada uni o‘rganishda qator aniqliklar kiritildi. Qizilolma 2 ustaxonasi Ko‘lbuloqdan 66 m balandlikda joylashgan. Mazkur ustaxonada arxeologik materiallar argonogen oxaktoshlarga tutashgan adirli-lesssli yotqiziqlardan tarkib topgan. 2007 yilda ushbu joyda bir qator tozalash ishlari olib borildi va qazishmalar uchun qulay maydon belgilab olindi. 2008 yilda yesa, yodgorlikda 8 m² ni tashkil qiluvchi qazishma amalga oshirildi. 4 m gacha chuqurlikdagi ushbu qazishmadan topilmalarga boy 3 ta litologik qatlam aniqlandi. Yuqori qatlam (1-qatlam) qadimda qayta hosil bo‘lgan va dellyuvial aralash lesssdan iborat. 2-qatlamning yotqiziqlari selli genezisga ega, 3-qatlam esa anchayin sokinlik davrida xosil bo‘lgan yotqiziqlardan iborat. Har uchala qatlamlardan topilgan arxeologik materiallar so‘ngi paleolit davriga xos ko‘rinishga ega¹⁶ bo‘lib, ushbu qatlamlardan olingan tosh industriyalar so‘nggi paleolit davrining birinchi yarmiga oid deb topildi.

Yodgorlikning inventarlari orasida ko‘plab nukleuslar, chaqmoqtosh bo‘laklari va mayda tosh parchalari uchraydi. To‘plamning nukleuslari yalpoq (ploskiy) va prizmasimondir. Prizmasimon nukleuslarni chaqmoqlash yarim yelkali va yelkali plastinalar shakllantirish texnikasi orqali amalga oshirilgan. Industriyaning asosiy yo‘nilg‘i-tanovori plastinalar hosil qilish bo‘lgan. Shunday bo‘lsa-da, to‘plamda uchirindilar ko‘p sonli va yehtimol, bu nukleuslarni shakllantirish yoki qayta shakllantirishdan hosil bo‘lgan. Qizilolma-2 ning tosh qurollari ko‘p emas. Ammo, ular orasida so‘nggi paleolit davriga oid yorqin namunalar uchraydi. Bularga qirg‘ichchalar va kesgichlarni misol keltirish mumkin.

Jarsoy. Ushbu topilmajoy Ko‘lbuloqdan 1 km shimoli-sharqda joylashib, 1994 yilda K.A. Kraxmal tomonidan aniqlangan. 1995 yilda ushbu soydan 30 ga yaqin tosh buyumlar yig‘ib olinib, artefaktlar o‘rta paleolit davriga oid deb aniqlangan. Ushbu industriyaning o‘ziga xos xususiyati unda levallua texnikasining yuqori darajada taraqqiy topganligi hisoblanadi va uning

¹⁶Деревянко А.П., Исламов У.И., Кривошапкин А.И., Колобова К.А., Фляс Д. Страницы истории древней культуры Узбекистана // Ўзбекистон пойтахти 2200 ёшда. Тошкент шахрининг 2200 йиллик юбилейига бағишланган халқаро илмий конференция,- Тошкент, 2009. – Б. 7-16.

O'zbekiston paleolitida qiyosi yo'q. Jarsoy materiallariga analogiya sifatida Tojikistondagi Xudji materiallari keltiriladi ¹⁷. So'ngra, 100 m chamasi yuqoriroqdan Jarsoy-2 punkti aniqlanib, undan ham bir necha o'nlab tosh buyumlar yig'ib olingan. Ular o'zining arxaikligi bilan ajralib turadi va tarkibida Qo'pol bifaslar hamda kliverlar (tosh bolta) uchraydi. Shuning uchun ham, uning industriyasi ilk paleolit davri bilan sanalangan. Jarsoyning har ikkala industriyasi ham yashmadan yasalgan buyumlardan iborat¹⁸.

Toshsoy. O'zbekiston-Rossiya xalqaro qo'shma ekspeditsiyasi tomonidan 1994 yilda ilk paleolit davriga oid yangi Toshsoy yodgorligi ochib o'rganildi. Yodgorlik Toshkent viloyatining Ohangaron tumani hududida, Ko'lbuloqdan 1,5 km shimolroqda, Angren daryosining o'ng irmog'i hisoblangan Toshsoydan 250 m g'arbroqda joylashgan¹⁹.

Yodgorlikning xarakterli xususiyati, uning qadimgi yuqori terrasada joylashganligi shuningdek, chopperlar, o'yib-kertib ishlangan qurollar hamda klekton tipidagi uchirindilardan iborat qadimiy industriyaga yegalligidir. Yodgorlikning tosh buyumlari orasida yashmasimon va mallarang hamda kulrangli chaqmoqtosh g'o'lalar bo'laklaridan yasalgan chopquvchi qurollar ham mavjud. Toshsoy daryosining o'ng qirg'og'idagi o'rta terrasasidan topilgan o'nlab muste-levallua fasiyasiga mansub tosh buyumlar to'plami ham juda qiziqarlidir²⁰. To'plam yo'nilg'ilarining ustki tarafi konvergent hamda parallel negativlar izlariga ega bo'lib, ularning barchasi fasetkalashtirilgan va bo'rtib chiqqan zarb maydonlidir.

Oxangaron paleolit davri yodgorligini o'rganish. 2001 yilda Angren daryosining Toshkent kompleksiga oid tepaligidan paleolit davri yodgorligi topildi. Yodgorlikning industriyasi Ko'lbuloqning yuqori qatlamlari

¹⁷Ранов В.А., Амосова А.Г. Раскопки мустьерской стоянки Худжи в 1978 г. Археологические работы в Таджикистане. №18. 1984. – С. 11-47.

¹⁸ Исламов У.И., Анисюткин Н.К., Крахмаль К.А., Сайфуллаев Б.К., Хушвактов Н.О. «Охангарон палеолитчилар гуруҳи 1995 йилги ёзги ва кузги мавсумларда олиб борилган дала-тадқиқот ишларининг ҳисоботи». Самарқанд. 1996. – Б. 21; Анисюткин Н.К., Исламов У.И., Крахмаль К.А., Хушвактов Н.О. Новые исследования палеолита в Ахангаране (Узбекистан). ИИМК, Санкт-Петербург 1995. – С. 27-28.

¹⁹ Исламов У.И., Крахмаль К.А., Анисюткин Н.К. Ташсай-новый древнепалеолитический памятник Узбекистана // ОНУ, №1-2-3, 1995. – С. 47-48.

²⁰Исламов У.И., Анисюткин Н.К., Крахмаль К.А., Сайфуллаев Б.К., Хушвактов Н.О. Отчет о проделанной работе кулбулакским отрядом в 1994 г. «Палеоэкология и пути первоначального заселения и обживания северо-востока Узбекистана». Самарканд. 1995. – С. 16.

komplekslaridan farq qilmaydi²¹. Ohangaron yodgorligi Ko'lbuloqdan 5 km g'arbroqda joylashib, u Ko'lbuloqliklarning mavsumiy ko'chib yashagan joyi bo'lgan. Topilmajoydan yig'ilgan 85 ta artefaktdan 45 tasi nukleuslardir. Ular radial-markazga intiluvchi texnika yordamida oxirigacha ishlatilgan ko'rinishlarga yega. Yo'nilg'ilari orasida plastinalar kam sonli (5 ta parallel yelkali yo'nilg'iga 9 ta radial markazga intiluvchi dorsalli uchirindilar to'g'ri keladi). Shuningdek, to'plamda 16 ta mayda uchirindi va atipik plastinalar aniqlangan. Aksariyat hollarda ular atayin sindirilgan. Yo'nilg'ilarning bir qismi nukleuslarda uchraydigan defektlar sababli oxiriga yetmay sinib qolgan taemplyarlarni tashkil qiladi.

To'plamning ikkilamchi ishlov berilgan buyumlari orasida 5 ta nukleussimon qurollar bo'lib, ulardan 4 tasi oxirigacha ishlatilgan yelpig'ichsimon shaklli qoldiq o'zaklardan shakllantirilgan. Bunday kichik hajmli yelpig'ichsimon nukleuslardan biri choppersimon qurolga, ikkinchisi esa qalin qirg'ichchaga yoki tosh randaga (raboga) aylantirilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Ko'lbuloq makoni va uning atrofidagi yodgorliklarda olib borilayotgan yangi kompleks tadqiqotlar Shimoli-G'arbiy Tyanshon hududlarida ibtidoiy davr tarixiy taraqqiyotini to'laroq rekonstruksiya qilish imkonini beradi. Hozirda o'rganilgan hudud bo'yicha ma'lumotlarning yetarli emasligi, avvalombor, aniq stratifigrafiyalashgan yodgorliklarning va sifati yuqori chop yetilgan arxeologik materiallarning yo'qligi muammosi sezilmoqda. Ohangaron vodiysidagi yangi tadqiqotlar ushbu bo'shliqni to'ldiradi.

To'daxotin makoni – O'zbekiston-Rossiya xalqaro qo'shma ekspeditsiyasi hamkorligining natijasi

2005 yilning avgustida O'zbekiston-Rossiya paleolitchilar ekspeditsiyasi tomonidan Obirahmat g'ori hamda Paltov daryosining (Chotqol daryosining o'ng irmog'i) o'rta oqimi hududlarida qidiruv ishlari amalga oshirildi²². Natijada, daryoning quyilish joyidan 10 km balandroqdan va uning o'ng qirg'og'idagi

²¹Касымов М.Р. Проблемы палеолита Средней Азии и Южного Казахстана (по материалам многослойной палеолитической стоянки Кульбулак): Автореф. дис. ... д-ра ист. наук. – Новосибирск, 1990. – С. 42.

²²Исламов У.И., Кривошапкин А.И., Сайфуллаев Б.К., Мухаммадиев А. Г., Алимов К., Колобова К.А., Славинский В.С. Отчёт по археологическим работам 2005 год. Археологические исследования в бассейне реки Пальтау. Самарканд, 2006. Научный архив ИА АН РУз. Фонд 07. 01. №164. – С. 13-18;

baland ikkinchi terassaning subgorizontal maydonidan yigʻma materiallarga ega ikkita punkt aniqlandi. Bu joy bir tomondan daryo, ikkinchi tomondan uning chap irmogʻi bilan oʻralgan va dengiz sathidan 30 m balandlikda joylashgan.

Toʻdaxotin 1 makoni (41,58° shimoliy kenglik, 70,17° sharqiy uzunlik, absolyut balandligi 1495 m) vodiyning yuqorisida, ikkinchi terassaning chekkasida joylashgan. **Toʻdaxotin 2 makoni** (41°34′20,4″ shimoliy kenglik, 70°09′48,9″ sharqiy uzunlik, absolyut balandligi 1496 m) Toʻdaxotin 1 yodgorligidan 140 m gʻarbroqda, ikkinchi terassaning qirrasida joylashgan boʻlib, qazilgan yumshoq yotqiziqlarning umumiy qalinligi 3 m gacha yetadi²³.

Bir biridan 140 m masofada joylashgan ushbu punktlar daryo havzasidagi yirik toshlar uyumi nomi bilan Toʻdaxotin deb nomlandi va ularga 1, 2 raqami berildi. 2005 yilda yigʻma materiallar konsentratsiyalashgan joylarga ikkita tekshiruv shurflari solindi. Toʻdaxotin 1 yodgorligini tekshirishdan topilgan madaniy qoldiqlar bitta litologik qatlamda ekanligi aniqlandi va bu qatlam qiyalikda joylashgan boʻlib, anchayin buzilgan. Uning tosh kolleksiyasi nukleuslar (plastinalar va mikroplastinalar uchun moʻljallangan), uchirindilar va plastinalar uchlarida shakllantirilgan qirgʻichchalar, perimetri boʻylab ishlangan qirgʻichchalar, retushlangan plastinalar hamda uchirindilar boʻlaklaridan iborat.

Toʻdaxotin 2 yodgorligida qazilgan 6 m² maydonli shurf, bu yerda bir nechta nisbatan buzilmagan madaniy qatlam mavjudligini koʻrsatdi va ulardan soʻngi paleolit davriga oid artefaktlar yigʻib olindi²⁴.

Yodgorlikdan 2006-2007 yillardagi qazishmalar chogʻida 5 ta madaniy qatlam aniqlanib, ularning yeng yuqoridagisi anchayin buzilgan hamda undan paleolit davri materiallari bilan bir qatorda oʻrta asrlarga oid sopol buyumlar ham topilgan.

²³ Исламов У.И., Кривошапкин А.И., Колобова К.А., Милютин К.И., Мухаммадиев А. Г. Отчёт по археологическим работам 2006 гг. Полевые исследования стоянок Оби-Рахмат и Додекатым-П. – Самарканд, 2007. Научный архив ИА АН РУз. Фонд 07. 01. №165. – С. 74-87.

²⁴ Исламов У.И., Кривошапкин А.И., Колобова К.А., Милютин К.И., Мухаммадиев А. Г. Отчёт по археологическим работам 2006 гг. Полевые исследования стоянок Оби-Рахмат и Додекатым-П. – Самарканд, 2007. Научный архив ИА АН РУз. Фонд 07. 01. №165. – С. 78; Кривошапкин А.И., Милютин, К.И., Новиков, И.С., Исламов У.И., Мухаммадиев А.Г. Новые верхнепалеолитические стоянки в бассейне реки Пальтау (Республика Узбекистан) // УММТ, №35. Тошкент, 2006. – С. 23.

2006-2007 yillarda To‘daxotin 2 makonidagi shurfning yonidan 9 m² maydonli qazishma ishlari olib borildi, natijada 6098 ta tosh buyumlar qazib olindi. To‘daxotin 2 makonining stratigrafiyasi delyuvial-prolyuvial genezisga ega²⁵.

To‘daxotin 2 makonida tosh buyumlar yasash uchun xom-ashyo sifatida mahalliy hamda keltirilgan chaqmoqtosh, xalsedon, qayroqtosh, kvars kabi jinslardan foydalanilgan. Eng ko‘p qo‘llanilgan materiallar mahalliy va boshqa joylardan olib kelingan chaqmoqtosh, xalsedon, qayroqtosh va kvarsitlar bo‘lib chiqdi.

To‘daxotin 2 yodgorligini stratigrafik kuzatishlar asosida quyidagi xulosalar keltirilgan: 1) 1-qatlam so‘ngi paleolit davri artefaktlari bilan so‘ngi davrlar arxeologik materiallari aralashib ketgan holatda va bu antropogen jarayonlar hamda yumronqoziqlarning faoliyati tufayli sodir bo‘lgan; 2) 2, 3 va 4-qatlamlarning materiallari nisbatan “insitu” holatida yotadi va bu planigrafik kuzatishlar, texnik-tipologik hamda applikasion tahlillarda ham ko‘rinib turadi. Arxeologik topilmalarning guvohlik berishicha, ikkinchi qatlamda ibtidoiy odam tomonidan ancha uzoq vaqt mobaynida istiqomat qilingan bo‘lsa, 3 va 4-qatlamlarda hayot nisbatan qisqa vaqt davom etgan; 3) 5-qatlamning tosh buyumlari tabiiy ta’sirlar sababli biroz joyidan siljigan.

To‘daxotin 2 makoni tosh buyumlarining texnik-tipologik tadqiqi natijalariga ko‘ra, bu industriyani er. av. 23-21 ming yilliklarga oid yagona madaniy an’analar egalariga xos deyish mumkin²⁶. Qatlamlardagi tosh buyumlar tiplarining son jihatidan farq qilishini u yoki bu maydonning istiqomat qilinishi muddati bilan bog‘lash mumkin. Bundan tashqari, yodgorlik maydoni atrofdagi daryoning toshib yoki unda suvning kamayib oqishi oqibatida geomorfologik o‘zgarishlarga uchragan.

²⁵ Кривошапкин А. И., Колобова К. А., Харевич В. М. Индустрия стоянки Додекатым-2 (Узбекистан): новые данные по верхнему палеолиту региона // Вестник НГУ. – 2009. – Серия: история, филология. Т. 8. – Вып. 5: Археология и этнография. – С. 74–97.

²⁶ Кривошапкин А. И., Колобова К. А., Харевич В. М. Индустрия стоянки Додекатым-2 (Узбекистан): новые данные по верхнему палеолиту региона // Вестник НГУ. – 2009. – Серия: история, филология. Т. 8. – Вып. 5: Археология и этнография. – С. 89.

Yodgorlik industriyasining chaqmoqlash texnikasi uchun keyinchalik qo'ndoqli qurollar yasashda foydalanilgan prizmatik va ensiz chaqmoqlash texnikasi yordamida mayda plastinalar olish xarakterlidir. Tosh qurollar orasida mikroinventarlar ko'pchilikni tashkil qiladi (avvalombor, uchburchaksimon mikrolitlar va qirradi o'tmaslashtirilgan plastinkalar) va bu yodgorlikda ixtisoslashgan faoliyat – mavsumiy ovchilik mavjud bo'lganligidan dalolat beradi. Shuningdek, to'plamda talaygina qirg'ichchalar, kesgichlar va tosh bigizlarning mavjudligi yodgorlikni uzoq muddatli "asosiy" (bazovyy) ovchilik lageri bo'lganligini ko'rsatadi. Biroq, To'daxotin 2 to'plamidagi tosh buyumlar orasida qatlamlardan qatlamga evolyusion o'zgarishlar kuzatilmaydi.

Hozirgi kunda ushbu hududda so'nggi paleolit davriga oid boshqa yodgorliklar uchramaganligi tufayli To'daxotin makonining sinxron industriyalari hamda uning madaniy-davriy kelib chiqishi masalasida biron narsa deyish qiyin. To'daxotin industriyasiga o'xshash belgilarni Toshkent viloyatidagi Ko'lbuloq²⁷ makonining yuqori qatlamlari materiallari orasida uchratish mumkin. Ko'lbuloqdan o'tgan XX asrda va hozirgi kunda olib borilayotgan Qazishma materiallari ularning texnik-tipologik xarakteristikasini To'daxotin materiallari bilan qiyoslash imkonini bermoqda.

Xronologik jihatdan Ko'lbuloqning yuqori qatlamlari materiallari To'daxotin industriyasidan yoshroq ko'rinishga ega. Buning isboti sifatida Ko'lbuloqning yuqori qatlamlari tosh buyumlari orasida yezma (otjimmaya) texnika yordamida chaqmoqlash yoki retushlashning uchramasligini keltirish mumkin va bu texnik an'ana To'daxotin 2 industriyasida keng qo'llanilgan. Yana shuni qo'shimcha qilish mumkinki, Ko'lbuloqning yuqori qatlamlari industriyasida qirralari o'tmaslashtirilgan plastinkalar umuman uchramaydi, shunday bo'lsada, Ko'lbuloqning retushlangan plastinkalari To'daxotin

²⁷ Касымов М. Р. Проблемы палеолита Средней Азии и Южного Казахстана (по материалам многослойной палеолитической стоянки Кульбулак): Автореф. дис. ... д-ра ист. наук. – Новосибирск, 1990. – С. 42.

makonining quyi qatlamlaridagi shunday buyumlarga o'xshash bo'lib, ular qo'ndoqli qurollar yasashda qo'llanilgan²⁸.

To'daxotin 2 makonining yuqori darajada taraqqiy topgan madaniyatning shakllanishidagi ilk bosqichlariga Qizilolma-2 ustaxonasi materiallarini kiritish mumkin. Bu yerdagi anchayin buzilgan qatlamlardan topilgan tosh buyumlar ilk yuqori paleolit davriga xos ko'rinishga ega. Qizilolmada prizmasimon hamda yuza bo'ylab o'rta hajmli plastinalar chaqmoqlab olish hukmron bo'lishi bilan birga, Ko'lbuloqning so'ngi paleolit davri qatlamlaridagi singari yensiz nukleuslardan mayda plastinkalar uchirib olish strategiyasi ham kuzatiladi. Yodgorlikning uncha ko'p bo'lmagan tosh Qurollari orasida Qirg'ichlar ko'pchilikni tashkil qiladi²⁹.

Qizilolma-2 materiallarini o'rganish natijasida, uning hozirda o'rtadan so'nggi paleolitga o'tish davrini aks ettirgan yagona yodgorlik hisoblanadigan Obirahmatga xos texnologik an'analarning qo'llanilganligi kuzatiladi (ensiz va nukleus-kesgichlarning har ikkala to'plamlarda ham mavjudligi). To'daxotin industriyasini Samarqand makoni materiallari bilan taqqoslanganda³⁰, ularda qator o'xshash tiplar mavjudligi ko'zga tashlanadi. Avvalombor, bu mayda plastinalar chaqmoqlab olishga mo'ljallangan karane tipli nukleus-qirg'ichchalar hamda mayda yo'nilg'ilarning uch qismlarida ishlangan qirg'ichchalarda o'z ifodasini topadi. Bir vaqtning o'zida Samarqand makoni industriyasida bir qator arxaik makroqurollar talaygina (bu ko'pgina mutaxassislarning fikricha, O'rta Osiyo so'ngi paleolitining spetsifik xususiyatidir). Shuningdek, Samarqand makoni to'plamida yuqori darajada taraqqiy topgan mikroinventarlarning uchramasligi uni To'daxotin bilan yagona madaniyatga kiritish imkonini bermaydi.

Shunday bo'lsada, ta'kidlash joizki, yuqori darajada rivoj topgan so'nggi paleolit kontekstida arxaik chopquvchi qurollarning mavjudligi hamda

²⁸Кривошапкин А. И., Колобова К. А., Харевич В. М. Индустрия стоянки Додекатим-2 (Узбекистан): новые данные по верхнему палеолиту региона // Вестник НГУ. – 2009. – Серия: история, филология. Т. 8. – Вып. 5: Археология и этнография. – С. 93.

²⁹Кўрсатилган адабиёт. – Б. 93.

³⁰Джуракулов М. Д. Самаркандская стоянка и проблемы верхнего палеолита в Средней Азии. Ташкент, 1987. С. 172.

chaqmoqlashning mikroplastinkasimon mahsulotlarining uchramasligi (ularni chaqmoqlab olishga mo'ljallangan nukleuslar mavjud bo'lsada), hozirgacha munozarali bo'lib qolayotgan madaniy yotqiziqslarning stratigrafik holati hamda turli davrlarda amalga oshirilgan qazish uslublari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. To'daxotin kompleksini agar keng doirada qiyoslaydigan bo'lsak, aytish joizki, er. av. 25-18 ming yilliklarga kelib Ovrosiyo hududlarida qo'ndoqli qurollar ishlab chiqarishga mo'ljallangan mikrolitizatsiyaga moyil madaniyatlar barqororlashadi.

.

Xulosa

O'zbekiston hududi tarix sahnasining eng yorqin qismlaridan hisoblanadi. Yurtimiz o'zining boy va takrorlanmas o'tmishi hamda madaniyatiga egadir. Ushbu o'tmish voqealarini o'rganish va to'g'ri tahlil qilish orqali moziy xazinasida hali ochilmagan sirlarning, jumboqlarning kalitini topish mumkin desak adashmagan bo'lamiz. Tarix fanining poydevorini tashkil etuvchi arxeologiya sohasi esa bu borada katta ahamiyatga molik. Aynan shu soha vakillarining mashaqqatli mehnati hamda bilim-tafakkur nurlari bilan moziyning bizga qorong'li bo'lgan sahifalari oydinlashib bormoqda.

Mamlakatimiz hududida arxeologiya sohasini rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilgan. Arxeologik yodgorliklar, madaniy meros obyektlarini saqlash, muhofaza qilish hamda kelajak avlodga yetkazish borasida ham kerakli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu sohada hukumatimiz tomonidan zarur qonun, qaror va hujjatlar qabul qilinib amalga kiritilmoqda.

Mustaqillik tufayli o'tmish tariximizni tiklash, o'rganish va kelajak avlodga yetkazish, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy madaniyat hamda qadimgi durdonalarni asrab-avaylash va saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etdi. Madaniy meros obyektlarini saqlash borasida hukumatimiz tomonidan ko'plab qonun va qarorlar qabul qilingan.

Arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va tadqiq qilishni yanada rivojlantirish zarurligi zamon talabi. Madaniy meros ob'ektlarini xalq ta'limi, oliy ta'lim dargohlarida, mahallalarda, shahar va qishloqlarda keng targ'ib qilish muhim ahamiyat kasb etishi, shubhasiz.

Xususan, tarixiy meros ob'ektlarni himoyalash va ulardan foydalanish borasida bir qator qonunlar qabul qilindi. Jumladan, yurtimizning bosh qomusida tarixiy, madaniy va ma'naviy yodgorliklarni saqlash fuqarolarning burchi ekanligi va yodgorliklar davlat himoyasida ekanligi belgilab qo'yildi. Shu bilan birga 2001 yilda "Madaniy meros yodgorliklarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida", 2009 yilda esa —"Arxeologik yodgorliklarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida" qonunlar qabul qilinib, ularda madaniy

meros ob'ektlaridan foydalanish, himoya qilishning huquqiy asoslari begilab qo'yildi.

Ushbu qabul qilingan qonunlar hamda hukumatimizning sa'yi harakatlari natijasida mustaqillik yillarida yurtimizdagi ko'plab arxeologiya merosi yodgorliklarida dunyo talablariga javob beradigan ilmiy asoslarda restavratsiya va konservatsiya ishlari amalga oshirildi. Shu bilan birga, shaharlarning bosh loyihalarini ishlab chiqishda madaniy meros yodgorliklarini o'rni alohida hisobga olindi, ular zamonaviy shaharlardagi yangi qurilishlar qiyofasi tarixiy yodgorliklarga uyg'unlashtirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Nazariy-siyosiy adabiyotlar.

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. Тошкент, «Ўзбекистон», 2017.
2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз.- Тошкент, «Ўзбекистон», 2016.
3. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. – Тошкент, 2002. – Б. 148.

Asosiy adabiyotlar

1. Абрамова З.А. Палеолит Средней Азии и Казахстана. В томе: Палеолит СССР. М.: Изд-во «Наука». 1984.
2. Акимова Е. В., Стасюк И. В. Мотузко А. Н. К проблеме изучения «мелкопластинчатых индустрий» в палеолите Средней Сибири // Социогенез в Северной Азии. Иркутск, Иркутский МИОН, 2005. Часть 1.
3. Анисюткин Н.К., Исламов У.И., Крахмаль К.А., Сайфуллаев Б.К., Хушвактов Н.О., Предварительные исследования долины реки Ахангаран за 1994 г.». Санкт-Петербург. 1995.
4. Анисюткин Н.К., Исламов У.И., Крахмаль К.А., Хушвактов Н.О. Новые исследования палеолита в Ахангаране (Узбекистан). ИИМК, Санкт-Петербург 1995.
5. Бартольд В.В. Отчет о командировке в Туркестан // ЗВОРАО. Т. XV, С.-Пб., 1904.
6. Бартольд В.В. Сочинения. Т. 1. Москва, 1963.
7. Васильев С. А. Поздний палеолит верхнего Енисея (по материалам многослойных стоянок района Майны). СПб.: Центр “Петербургское Востоковедение”, 1996.
8. Веселовский Н.И. История Императорского археологического общества за первое пятидесятилетие его существования. 1846-1896 гг. СПб., 1900.
9. Деревянко А.П., Исламов У.И., Кривошапкин А.И., Колобова К.А., Фляс Д. Страницы истории древней культуры Узбекистана // Ўзбекистон

- пойтахти 2200 ёшда. Тошкент шахрининг 2200 йиллик юбилейига бағишланган халқаро илмий конференция, Тошкент, 2009.
- 10.Джуракулов М. Д. Самаркандская стоянка и проблемы верхнего палеолита в Средней Азии. Ташкент, 1987.
 - 11.Исламов У.И., Анисюткин Н.К., Крахмаль К.А. Древнепалеолитический памятник Кызылалма // ОНУ. Ташкент, 1994. № 9-10.
 - 12.Исламов У.И., Анисюткин Н.К., Крахмаль К.А., Сайфуллаев Б.К., Хушвактов Н.О. «Оҳангарон палеолитчилар гуруҳи 1995 йилги ёзги ва кузги мавсумларда олиб борилган дала-тадқиқот ишларининг ҳисоботи». Самарқанд. 1996.
 - 13.Исламов У.И., Анисюткин Н.К., Крахмаль К.А., Сайфуллаев Б.К., Хушвактов Н.О. Отчет о проделанной работе кульбулакским отрядом в 1994 г. «Палеоэкология и пути первоначального заселения и обживания северо-востока Узбекистана». Самарканд. 1995.
 - 14.Исламов У.И., Крахмаль К.А., Анисюткин Н.К. Ташсай-новый древнепалеолитический памятник Узбекистана // ОНУ, №1-2-3, 1995.
 - 15.Исламов У.И., Кривошапкин А.И., Колобова К.А., Милютин К.И., Мухаммадиев А. Г. Отчёт по археологическим работам 2006 гг. Полевые исследования стоянок Оби-Рахмат и Додекатым-П. – Самарканд, 2007. Научный архив ИА АН РУз. Фонд 07. 01. №165.
 - 16.Исламов У.И., Кривошапкин А.И., Колобова К.А., Милютин К.И., Мухаммадиев А. Г. Отчёт по археологическим работам 2006 гг. Полевые исследования стоянок Оби-Рахмат и Додекатым-П. – Самарканд, 2007. Научный архив ИА АН РУз. Фонд 07. 01. №165.
 - 17.Касымов М. Р. Проблемы палеолита Средней Азии и Южного Казахстана (по материалам многослойной палеолитической стоянки Кульбулак): Автореф. дис. ... д-ра ист. наук. – Новосибирск, 1990.
 - 18.Касымов М.Р. Культуры и варианты палеолита Узбекистана // Каменный век Средней Азии и Казахстана. Ташкент, 1972.
 - 19.Касымов М.Р. О проблемах изучения палеолита на территории Средней Азии и Южного Казахстана // ОНУ, № 9, Ташкент, 1990.

20. Касымов М.Р. Проблемы палеолита Средней Азии и Южного Казахстана. Автореф. дисс. докт. ист. наук. Новосибирск, 1990.
21. Касымов М.Р., Годин М.Х. Важнейшие результаты исследований многослойной стоянки Кульбулак // ИМКУ, вып. 19. Ташкент. 1984.
22. Касымов М.Р., Годин М.Х. Важнейшие результаты исследований многослойной стоянки Кульбулак // ИМКУ, вып. 19. Ташкент. 1982.
23. Касымов М.Р., Годин М.Х., Худайбердыев Т.Н., Домустьерские культуры на территории Узбекистана // Хроностратиграфия палеолита Северной, Центральной, Восточной Азии и Америки. Новосибирск. 1992.
24. Касымов М.Р., Дуке Х., Гречкина Т.Ю. О новых данных по каменному веку Туябугуза // ИМКУ, вып. 15. Ташкент. 1979.
25. Касымов М.Р., Коробков И.И., Годин М.Х. Стратиграфия, литология и характеристика каменной индустрии многослойной стоянки Кульбулак // Проблемы взаимосвязи природы и общества в каменном веке Средней Азии. Ташкент. 1988.
26. Кривошапкин А. И., Колобова К. А., Харевич В. М. Индустрия стоянки Додекатым-2 (Узбекистан): новые данные по верхнему палеолиту региона // Вестник НГУ. – 2009. – Серия: история, филология. Т. 8. – Вып. 5: Археология и этнография.
27. Кривошапкин А. И., Колобова К. А., Харевич В. М. Индустрия стоянки Додекатым-2 (Узбекистан): новые данные по верхнему палеолиту региона // Вестник НГУ. – 2009. – Серия: история, филология. Т. 8. – Вып. 5: Археология и этнография.
28. Кривошапкин А. И., Колобова К. А., Харевич В. М. Индустрия стоянки Додекатым-2 (Узбекистан): новые данные по верхнему палеолиту региона // Вестник НГУ. – 2009. – Серия: история, филология. Т. 8. – Вып. 5: Археология и этнография.
29. Кривошапкин А.И., Колобова К.А., Фляс Д., Павленок К.К., Исламов У.И., Лукьянова Г.Д. Индустрия слоя 23 стоянки Кульбулак по материалам раскопок 2010 года // Проблемы археологии, этнографии и

- антропологии Сибири и сопредельных территорий: Мат-лы годовой сессии Ин-та археологии и этнографии СО РАН 2010 г. – Новосибирск: Изд-во Ин-та археологии и этнографии СО РАН, 2010. – Т. ХВИ.
- 30.Кривошапкин А.И., Милютин, К.И., Новиков, И.С., Исламов У.И., Мухаммадиев А.Г. Новые верхнепалеолитические стоянки в бассейне реки Пальтау (Республика Узбекистан) // ЎММТ, №35.Тошкент, 2006.
- 31.Лисицын Н. Ф. Поздний палеолит Чулымо-Енисейского междуречья. – СПб.: Петербургское Востоковедение, 2000.
- 32.Лунин Б.В. О нумизматической коллекции узбекского собирателя древностей Акрама Аскарова (по архивным данным) // ИМКУ. Вып. 5. Ташкент, Фан, 1964.
- 33.Лунин Б.В. Самаркандский любитель древностей и каллиграф Абу Саид Махзум // ИМКУ. Вып. 7. Ташкент, Фан, 1966.
- 34.Мўминов И.М. Из истории развития общественно-философской мысли в Узбекистане конце XIX-начала XX вв. Ташкент, Фан, 1975.
- 35.Мухамаджанов А. Археология // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2000.
- 36.Ранов В.А., Амосова А.Г. Раскопки мустьерской стоянки Худжи в 1978 г. Археологические работы в Таджикистане. №18. 1984.
- 37.Ранов В.А., Несмеянов С.А. Палеолит и стратиграфия антропогена Средней Азии. Душанбе. 1974.
- 38.Садыкова Н. Музейное дело в Узбекистане. Ташкент, Фан, 197.
- 39.Труды отдела истории культуры и искусства Востока. Москва, 1940.
- 40.Туркестанские ведомости. 1912, №46.
- 41.Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. LexUz.
- 42.Хушваков Н.О. Раскопки стоянки Кульбулак в 1995 г. Новые археологические открытия и изучение культурной трансформации. – СПб, 1996.

- 43.Ширинов Т. Ўзбекистонда археология фанини ривожлантириш концепцияси. Ўзбекистон моддий маданияти тарихи. 32-нашри, Тошкент, “Фан”, 2001.
- 44.Ширинов Т.Ш., Бердимуродов А.Э., Пардаев М.Х. Ўзбекистонда археология фанининг шаклланиши ва ривожланиши тарихидан. Ўзбекистон археологияси, Самарқанд, 2010, 1-сон.
- 45.Ширинов Т.Ш., Пардаев М.Х., Мирзаахмедов Ж.К. Академик Я.Ғ. Ғуломовнинг ҳаёт йўли ва илмий мероси // ЎММТ. 29-сон. Самарқанд, Сўғдиёна, 1998.
- 46.Шишкин В.А. Обсерватория Улугбека и её исследование // Труды Института истории и археологии АН УзССР. Т. 5. Ташкент, 1953